



# SCIENCE SHINE ILM NURI СВЕТ НАУКИ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNAL | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

Issue 5



## ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors

2023  
MAY 31



**SCIENCE SHINE**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC JOURNAL

**ILM NURI**  
XALQARO  
ILMIY JURNALI

**СВЕТ НАУКИ**  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ  
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

# SCIENCE SHINE

**Issue 5.**

31. 05. 2023

**I<sup>WORLD</sup>  
J<sup>of</sup>  
I JOURNALS**



**zenodo**





**Tahrir kengashi:**

**Jumanazarov Xurshid Sirojiddinovich**

*O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

**Mamatov Obidxon Vaqqosovich**

*Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi*

**Masharipova Gularam Kamilovna**

*Falsafa fanlari doktori, professor  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

**Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich**

*Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

**Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna**

*O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Baymenova Kamshat Saparbayevna**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Bazarov Otabek Odilovich**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*

**Azizov Olimjon Toxirovich**

*Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti*

**Abdullayev Ravshan Inomjon o'g'li**

*O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi*

**G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi*

**Isroilov Ozodbek Saydullajon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Rabbonayeva Dildora Tolipovna**

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, "Xalq ta'limi a'lochisi", "Xalq ta'limi fidoiysi" unvonlari sohibasi.*

**Haydarova Umida Xojiakbar qizi**

*Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi*

**International  
scientific journal**

**"SCIENCE SHINE"**

**Bosh muharrir:**

D. Z. Olimjonov

**Jurnal bir oyda bir marta  
chop etiladi.**

Jurnal

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Administratsiyasi

huzuridagi

Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar

agentligi tomonidan 2023-  
yil 16-fevralda

№063974 sonli

guvohnoma bilan davlat  
ro'yxatidan o'tkazilgan

Maqola ko'chirilib  
bosilganda, manba  
ko'rsatilishi shart

**Aloqa uchun:**

**Telefon:** +99899 011 6303

**E pochta:**

[scienceshine@mail.ru](mailto:scienceshine@mail.ru)

**Veb sayt:**

<http://science-shine.uz/>



## ISSIQ VA CHANGLI IQLIM SHAROITIDA ISHLATILAYOTGAN YUTONG AVTOBUSLARINING TEXNIK SERVIS TIZIMINI ASOSLASH

**Turgunbay Kadirshaev**

**Eldorjon Ashuraliyev Shamsiddin o'g'li**

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

**Annotatsiya:** Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqarilgan YUTONG avtobuslari mamlakatimizning shahar, shaharlararo va davlatlararo yo'nalishlarida yo'lovchi tashimoqda. Ushbu avtobuslarga ishlab chiqaruvchi tavsiya etgan servis tizimi asosida xizmatlar ko'rsatilishiga qaramay, respublikamizning juda issiq va changli iqlim sharoitida ekspluatatsiya qilinayotganligi sababli uning agregat va birikmalarida buzilishlar kuzatilmoqda. Sodir bo'layotgan nosozlik va buzilishlarni "agregat - birikma – detal" sxemasi bo'yicha chuqur o'rganishimiz asosida ularga texnik servis davri, bajariladigan ishlar hajmiga tuzatishlar kiritish tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada ma'lum bir agregat va birikmalarni buzilishlar sonini kamaytirish va moliyaviy samaradorlikga erishish kutilmoqda.

**Kalit so'zlar:** YUTONG avtobusi, nosozlik, buzilish, texnik servis, davr, ish hajmi.

Hozirgi kunda YUTONG avtobuslariga texnik servis ko'rsatish tizimi shartnomaga asosan belgilangan vaqtda olib borilmoqda va aynan shu avtobuslarda sodir bo'layotgan nosozliklar va unga issiq va changli ob havoning ta'siri Yutong kompaniyasi tomonidan muntazam kuzatib borilmoqda. YUTONG avtobuslariga texnik xizmat ko'rsatish ishlari 7-avtobus saroyida olib borilmoqda, agar bu avtobuslarning biror detali yoki uzelida buzilish sodir bo'lsa ular ta'mirlanmoqda va almashtirilmoqda. YUTONG avtobuslari O'zbekistonga olib kelinganda ular bilan birga kerakli ehtiyot qismlari ham olib kelingan va bu detallar hozirgi kunda ham 7-avtobus saroyining omborida saqlanmoqda.

YUTONG avtobuslarining texnik holatini o'zgarishini o'rganish uchun ekspluatatsiya sharoitida 160 tasi tasodifiy usulda tanlab olindi va sodir bo'layotgan buzilishlar ro'yxatga olindi.

Albatta YUTONG avtobuslari uchun foydalanniladigan yonilg'i tarkibi ham avtobuslarni ekspluatatsiya qilishga katta ta'sir etadi. Olib borilgan o'rganishlar natijasida shu ma'lum boldiki YUTONG avtobuslarining yonilg'i filtri qoldiq moddalar bilan tez to'lib qolmoqda. Eng ko'p sodir bo'layotgan nosozliklardan biri -

yonilg'i tozalash filtrlari bo'lib, ular 700-800 km yurganda fraktsion ortiqcha moddalar bilan to'lib qolmoqda va uni ichidagi dizel yonilg'isi bilan yechib olinadi, yonilg'i to'kilib, tozalanib qayta o'rnatiladi (1-rasm).



1-rasm. Yonilg'i filtrida qolib ketgan chiqindi moddalardan tozalanishi.



Bu filtrni tekshirish jarayoni har kuni o'tkaziladigan kunlik xizmat ko'rsatish ishlarida olib boriladi, agar yonilg'i filtri qoldiq moddalar bilan to'lib qolsa, tozalash amalga oshiriladi.

Kuzatuv natijalari quyidagi jadval va diagrammada keltirilgan. Umumiy buzilishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p buzilish rul boshqarmasiga to'g'ri kelmoqda – 27 %, keyini o'rinda tormoz tizimi – 18 % tashkil etgan.

Jadval. Buzilishlarning agregatlar va tizimlar bo'yicha taqsimoti

No	Agregatlar va tizimlar	Soni	%
1	Dvigatel	2	1 %
2	Transmissiya	18	11 %
3	Yurish qismi	30	17 %
4	Tormoz tizimi	29	18 %
5	Rul boshqarmasi	45	27 %
6	Elektr qismlari	15	9 %
7	Tamizlash tizimi	15	9 %
8	Sovutish va moylash tizimi	2	1 %
9	Shina	12	7 %

## YUTONG AVTOBUSLARIDA SODIR BOLGAN BUZILISHLAR



Eng kam buzilishlar dvigatel mexanizlari, sovutish va moylash tizimlariga to'g'ri kelmoqda ya'ni dvigatel mexanizlari 1 % va sovutish , moylash tizimlari 1 % ni tashkil etmoqda.

Avtobuslarda sodir bo'layotgan texnik nosozliklar jarayonlarni nazariy va amaliy kuzatuv natijalari bilan solishtirib, quyidagilar taklif etildi:

Servis tizimini mukammallashtirish, zamonaviy diagnostik jihozlar bilan ta'minlash;

Texnik servis va ta'mirlash ishlarini sifatini oshirish uchun agregat, brikmalar bo'yicha mehnat hajmlari tahlil qilinib, kerakli hajmga oshirish;

Muhandis – texnik xodimlarning malakasini oshirish;

Har bir texnik nosozliklarni davriy oraliqda taxlil qilishni davom ettirish.

Takliflarni joriy etishdan natijasida samaradorlik sifatida texnik tayyorgarlik koefficientini 0.91 ga yetishi kutilmoqda.



## PECULIARITIES OF CREATIVE WORK (Virginia Woolf)

**Muaddat Temirboyeva**

Student, UzSWLU, Tashkent, Uzbekistan

Scientific advisor: N.E.Mukhammedova, PhD,dots.

**Annotation:** This article discusses Virginia Woolf, an English writer, feminist, essayist, publisher, and critic who worked with TS Eliot, Ezra Pound, James Joyce, and Gertrude Stein, one of the greatest modernists of the 20th century. His parents were Sir Leslie Stephen (1832-1904), a famous historian, writer, critic and mountaineer, and Julia Princep Duckworth, a famous beauty.

**Keywords:** literary, rationalizm, poetically, systematization, compatibly.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Virjiniya Vulf (Virginia Woolf) ingliz yozuvchisi, feminist, esseist, noshir va tanqidchi, T. S. Eliot, Ezra Paund, Jeyms Joys va XX asrning eng buyuk modernistlaridan biri Gertrud Shtayn bilan birga ijod qilgani haqida soʻz yuritiladi. Uning ota-onasi ser Lesli Stiven (1832-1904), taniqli tarixchi, yozuvchi, tanqidchi va alpinist va mashhur goʻzal Julia Princep Dakvort edi.

**Kalit soʻzlar:** badiiy, ratsionalizm, shoirona, tartibga solish, hamkorlikda

Virginia Woolf, real name Adeline Virginia Stephen (born January 25, 1882, London, England - died March 28, 1941 near Rodmell, Sussex) is an English author whose novels have greatly influenced the story through their non-linear approaches. by genre. Although she is best known for her novels, Mrs. Dalloway (1925) and The Lighthouse (1927), Wolfe also wrote pioneering essays on art theory, literary history, women's art, and government policy. A brilliant stylist, she experimented with several forms of biographical writing, wrote short fiction, and sent bright letters to friends and family throughout her life.

In early 1924, the Wolfs moved their city residence from the outskirts of the city to Bloomsbury, where they were less isolated from London society. Soon, aristocrat Vita Sacville-West began litigating with Virginia, a relationship that turned into a lesbian affair. After writing a story about Mrs. Dallowey, Wolfe thought of a device that would unite a hypersensitive woman with a war victim, Mr. Smith, and ensure that she would be on the "sane and insane" side. side by side. His goal was to "tunnel" the two characters until Clarissa Dalloway's confirmations responded to Septimus Smith's denials. Woolf also gave a lecture in Cambridge in 1924 entitled "Character in



Fiction," and was later revisited in the Hogarth Press pamphlet later that year as Mr. Bennett and Mrs. Brown. In it, he celebrated the "persecution of patriarchal values that took place during or in December 1910" - Fry's Manet and Post-Impressionists - and attacked "materialist" novelists who ignored the essence of the character.

In Mrs. Dalloway (1925), supernatural physicians think they understand personality, but its essence bypasses them. The novel is designed as a post-impressionistic painting, but at the same time so vividly depicted that the reader can observe the movements of Clarissa and Septimus through the streets of London one day in June 1923. At the end of the day, Clarissa gives a big picture. party and Septimus commits suicide. When the doctor who treated the septimus (more precisely, the mistreated one) comes to Clarissa's banquet with the news of her death, their lives are reunited. The protagonists are connected by motives and, finally, Clarissa connects with intuition why Septimus left his life.

Woolf wanted to consolidate Ms. Dalloway's success by combining romantic and elegant forms. As an elegy, *Mayakka*, published on May 5, 1927, on the 32nd anniversary of the death of Julia Stephen, awoke her childhood in the Talland House. As a novel, he divided the duration of the story into a three-dimensional structure. The first episode, "The Window," begins with Mrs. Ramsey and her youngest son, James (e.g., Julia and Adrian Stephen) sitting at the French window of the Ramsey summer house, painted by a guest named Lily Briscoe, at James' request. go to the nearest beacon. Like Leslie Stephen, Mr. Ramsey sees poetry as didactics, conversation as a point of achievement, and life as a set of achievements. He uses logic to extinguish his hopes of traveling to the beacon, but he demands compassion from his wife. He is more suited to emotions than crazy. In the climax of the dinner party, he inspires such harmony and serenity that at that moment he "felt eternity." In the middle of the novel, in the section "Time passes", the main focus is on the empty house after a 10-year break and the last-minute cleaning of the house for the returning Ramsey. Woolf describes the development of weeds, mold, dust, and gusts of wind, but he only announces important events such as the deaths of Mrs. Ramsay and her son and daughter. In the third part of the novel, *The Beacon*, Wolfe returns Mr. Ramsey from *The Window*, his youngest children (James and Kem), Lily Briscoe, and others. When Mr. Ramsay and now the teenage children reach the beacon and reconcile in an instant, Lily finishes painting. To the *Lighthouse* incorporates questions about creativity, the nature and function of art. Lily argues effectively for non-visual but emotional art, and



her image (in which it is reduced to two forms with a line between mother and child) fits into the abstract structure of Woolf's deeply elegant novel.<sup>1</sup>

Although Virginia Woolf's novels have received some appreciation in recent years, critics have largely ignored her literary criticism. The purpose of this article is to study in detail its achievements; identify general critical principles of writing that contradict systematization; and to disclose specific concepts known to his work. Since Virginia Woolf is a creature of her age, as well as one of its best translators, I have noted the relevant historical and environmental factors. Since the goals and ideas of his critical and creative work were the same from time to time, I did not hesitate to refer to his novels to examine or reinforce certain views. Memories of friends show the infinite variety and completeness of Virginia Woolf's complex personality and reveal logical and intuitive, practical and poetic thought. His non-formal education consisted mainly of unlimited use of his father's library, his duties as a publishing student, and membership in the Bloomsbury Group, where he became a forum for discussing everything that was important in life. served and art. Although Bloomsburians did not have enough commonalities to justify the inclusion of their particular doctrines and practices in the "school," they evoked and crystallized a general approach to artistic, philosophical, and political problems.

Virginia Woolf was the center or this coterie; and to varying degrees, it exemplifies many or all of its features. The peculiarity of his writer is that he does not want to say small things, does not believe in the power of the human mind in solving complex problems. Sir Leslie Stephen's skepticism strengthened his belief in rationalism; her daughter's skepticism led her to doubt the intellectual processes that were taking place. He preferred an intuitive approach to reality, not a mental one, because he combined life and its values with a poetic, delicate perception. However, it is not entirely correct to call this anti-intellectual. What he attacks is the superiority of the mind over the mind; in his critiques and novels, he often expresses respect for learning and the joy of working with the brain. Virginia Woolf denied her Orthodox Christian position, stating the spiritual dilemma of her environment<sup>2</sup>. He marveled at the imbalance between the simple teachings of Christ and the gatherings of the ages, or the beliefs, riches, and luxuries of the church; and he hated aspects of Christianity that glorified pain, asceticism, and death. But he did not renounce religion altogether, and in describing his "Christian" heroes he becomes less bitter and satirical, sympathetic,

<sup>1</sup> Hill-Miller, Katherine (2001). From the Lighthouse to Monk's House: A Guide to Virginia Woolf's Literary Landscapes. Duckworth. ISBN 978-0-7156-2995-6.

<sup>2</sup> Nadel, Ira (2016). Virginia Woolf. Reaktion Books. ISBN 978-1-78023-712-1.



and understandable. However, his attitude towards religion has created a huge gap in his critical benevolence: despite the wide range of his interests, he has little or no regard for religious writers and religious poets. Virginia Woolf, who decided to write as a woman and study her femininity, will continue the revolt or women as a spiritual suffragist. Strongly defending intellectual and cultural and political freedom, she presents herself as one of the greatest feminists of the century. Many of her critical works deal with women writers and their specific problems: the despair of talent, the difficulty of expressing themselves in the face of male evil, the “female” creative mood, and the specific “female” areas of literature . . . As her understanding of the important qualities of women’s ways of thinking and perceiving led to new and brighter insights into her critiques, feminism should be seen as a useful, effective force in her intellectual and artistic perspective. Mrs. Woolf was only a woman; she was also a lady, aristocratic by nature, always sensitive to social differences, blood, and kingdoms. Still, he dared to avoid them, even if he said his wrong thoughts.

The “refugee” is barely detached from reality, has a strong sense of social responsibility, and rarely has an honesty that recognizes that his interest in the oppressed is based on genuine compassion rather than abstract justice and reason. He envisioned the end of class divisions, a society that would unite without property. Interest in the team experience is a key element of his social and literary philosophy. He was a political and artistic internationalist who believed that humanity’s instincts of cooperation were as deeply rooted as competition. In the period between democratic and totalitarian tensions, the artist was forced to engage in politics because the survival of his life and art was in danger. Although many of his contemporaries flirted with or openly supported fascist teachings, he condemned the growing threat to society. Despite her relentless class consciousness, Ms. Woolf expressed her desire to accelerate the democratic process and reaffirmed her confidence that the creative forces of life would win again after the struggle. The next major part of this article discusses the artist’s interactions, environment, and traditions. Virginia Woolf viewed literature as a corporate, composite product of the author and the public, which has been subjected to countless vibrations in the environment. He believed in a true literary tradition, in the unity and continuity of literature, in a changed past. However, for him, no tradition will be completely true if it is not rooted in modern life as in the past. He envisioned the Georgian period as a period of general incredible transition.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Collins English Dictionary. Harper Collins Publishers. Retrieved 2 February 2018.



He understood the difficulty of creating important art in the context of an unstable civilization, and the need to emphasize the artist's own philosophical and artistic origins in the work itself. Thus, he was able to understand and explain the Georgian revolt against the literary convention and the adoption of new methods. Although he knew that art depended on life, his understanding of art was not utilitarian or ethical. In his critique, origin is subject to value. Approving of an aesthetic approach to literature, he expressed a passionate interest in the nature of artistic creation. He is forever drawn to the difficulty of expressing the words that preceded the final victory, the pains of creation, and the disappointments and failures.

Creative action is more than a process of self-examination; The task of this artist is to see people, convey their views and illuminate their experience. The artist creates a form out of chaos, loads a consistent form into the unbearable material of life, and turns the moment into something permanent. Some of the attributes of the aesthetic experience considered by Mrs. Wolf are unconsciousness or impersonality, separation, wholeness, and suggestion. In order to achieve the reality he has created, a writer has to turn his ideas and imagination into something beyond the person. He must have the courage to maintain faith with honesty, personal views, inner necessity, and sincerity. Mrs. Wolfe sees fiction as a potential, an incentive, not a final experience that requires the reader to take an active part in it. Other recurring themes, or a critique of it, are the unity and interaction of the arts, in particular their "purity". He condemns the subordination of art to foreign sciences and the deliberate assimilation of doctrine; but he did not object to the existence of ethics, politics, or metaphysics if they were hidden within the object or art itself, and were burned or "consumed" by form. Virginia Woolf's take on the role, either as a "general" or an ordinary reader, was motivated by a desire to separate herself from the dry and absurd criticisms of the latest experts of dogmatic academics. His critique is related to text analysis, Empson's uncertainties, and esoteric critical jargon, as well as schools and movements, observation of influences, and the origin of methods. Suspicious or rigid tags and established hierarchies, he ignores and destroys the jungle of secondary authority and commentary, and expresses his impure response to the originals.

For him, the presentation of the methodology is less important than the level at which the critic is engaged in a particular work in a particular situation. He prefers synthesis, to description, to the official proclamation of critical principles of personal impressions, rather than abstract analysis. By being emotionally and mentally involved in the work of art, he tries to assimilate himself into the mind of the writer in order to assimilate his worldview and "angle of view". His impressions are rarely vague and



irresponsible. His impressionism is remembered in calm, orderly and elegant, replaced by a sense of traditional balance. He captures the “feel” and atmosphere of the book, highlighting its core quality and telling it with joy. intensity and speed. Not only does it reveal the quality of authorship, but his critical essays have the uniqueness and intensity of a work of art because it reproduces it in its own unique form or context.

The forms and styles she used can be roughly classified as follows: a critique that evokes the spirit and environment of that period or writer’s environment; criticism through psychological portraits of individual writers; critique the book itself through direct evaluation; criticism through the discussion of literary genres and writing theory. Often two, three, or all of these methods - historical, biographical, psychological, and aesthetic - are compatible and combined in a single essay. Before analyzing Ms. Woolf’s critique of novelists, it is necessary to consider general principles based on her ideas about reality, character, poetic ability, and form in fiction. Virginia Woolf was a self-aware artist who sought to shape her own aesthetics and justify the use of new forms created to deal with new areas of conscious and unconscious experience. He rejected philosophical and aesthetic naturalism and replaced the perspective of reality that required the complexity of modern vision, which crystallized the artistic credo of the new generation in general. For him, reality is an intangible, almost indistinguishable thing, and it must be understood intuitively using symbols and images. It is the “light halo” that surrounds the mind; It is the author’s task to express and convey the incomprehensible nature of this "halo" and "semi-transparent envelope" by very faithfully recording the atoms of impressions that affect the mind.

Mrs. Brown, the character symbol of Virginia Woolf, is also a symbol of truth. He is less individual than the abstract idea of human nature. He is not a clearly defined, permanent person. Mrs. Woolf rejected the all-knowing set of characters who considered her uniqueness to be neither permanent nor limited. He preferred mobility rather than stability of personality. For the novel, he preferred fiction rich in poetic values, with intensity and reality through the controlled expression of poetic emotion. His understanding of poetry is not limited to lyrical aspects. He cares about the peculiarities of poetry, which are characteristic of all imaginary literature. Among the poetic forces are uncertainty, the use of a symbol with an infinite fund of offerings, and the writer’s ability to create a new world and force us to abandon our own point of view and adopt a specific order of its novel elements. man, nature, God. Nor could the novel have made its highest expression without careful formal organization. Form is another aspect of a writer’s ability to force the reader in his or her own way and to see



what he or she sees. Form is achieved when emotions are in the right relationship to each other. It is a formative force, an architectural quality that should not distract the reader. In great art he felt, sight and expression, form and content are inseparable. In the last third of this dissertation, the general principles and methods of Virginia Woolf's critique are described in his critiques of writers of the last three centuries. Novelists from Defoe to D. H. Lawrence, the poets Shoser, Spencer, Donne, and Elizabeth Barrett Brown, have been studied in detail. He gave in-depth insights into Greek and Elizabeth dramaturgy, the role of the plot and chorus in Greek tragedy, the differences between play and novel, and art or Shakespeare, Kongrev, and Chekhov. The thesis concludes with a theory or biography of Mrs. Wolf, as well as a review of her biographical essays, in which she often illuminates the work of art itself by setting up a figure or artist. Mildly, or in this extensive study, or in the achievement of Virginia Woolf, she appears, I think, as one of the most eminent critics of the twentieth century and, of course, the greatest female critic of all centuries in English literature.

#### References:

1. Bell, Quentin (1972). *Virginia Woolf: A Biography*. Harcourt Brace Jovanovich. ISBN 978-0-15-693580-7.
2. *Collins English Dictionary*. Harper Collins Publishers. Retrieved 2 February 2018.
3. Hill-Miller, Katherine (2001). *From the Lighthouse to Monk's House: A Guide to Virginia Woolf's Literary Landscapes*. Duckworth. ISBN 978-0-7156-2995-6.
4. Nadel, Ira (2016). *Virginia Woolf*. Reaktion Books. ISBN 978-1-78023-712
5. *The Greatest Essays of Virginia Woolf*. Musaicum Books. ISBN 978-80-272-3514-8.
6. Woolf". *Collins English Dictionary*. Harper Collins Publishers. Retrieved 2 February 201.



## TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARIDA NOAN‘ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

**Muattar Fozilova Rustamjon qizi**

Namangan viloyat, Chortoq tuman 11-sonli MTT direktori

**Sohiba Axmedova Anvarxon qizi**

Chortoq tuman 11-sonli MTT katta guruh tarbiyachisi, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida noan‘anaviy usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar va fikr-mulohazalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, bolalar, tasviriy faoliyat, badiiy –estetik tarbiya, rivojlanish, qog‘oz, bo‘yoq, rasm.

**Annotation:** This article provides recommendations and feedback on the use of non-traditional methods in visual activity classes held in preschool educational institutions.

**Keywords:** preschool education, children, visual activity, artistic-aesthetic education, development, paper, paint, painting.

Yurtimizda ta’lim tizimining muhim bosqichi bo‘lgan – maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu masala davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish mexanizmini takomillashtirish talabi qo‘yilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining birlamchi yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo‘nalishning samarasi estetik yo‘nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya) kompleks tarzda qo‘llanilgandagina aniq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim maskanlarida o‘tiladigan «Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o‘z xususiyatiga ko‘ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tiladigan «Tasviriy faoliyat» o‘z tarkibiga ko‘ra quyidagi mashg‘ulot turlaridan

iborat: «Rasm chizish», «Plastilin (loy) bilan ishlash», «Applikatsiya» hamda «Qurish-yasash» mashgʻulotlari. Bularning har biri bolalar tasavvurlarida atrof-olamning aks ettirish imkonini beradi. Ayniqsa bunday mashgʻulotlarda noanʼanaviy yaʼni bola faoliyati uchun qiziqarli boʻlgan innovatsion usullarni qoʻllash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada estetik taʼsirdan tashqari oʻzining maxsus taʼsir kuchiga ega boʻladi.[2] Bu taʼsir esa yemotsional va estetik idrokni shakllantirish, bolaning shakllar, ranglar, nisbatlarning ifodaliligini payqash va shu bilan birga oʻz munosabati va his-tuygʻularini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga koʻmaklashadi.

Koʻplab noanʼanaviy chizish texnikasi mavjud va ularning oʻziga xosligi shundaki, ular bolalarga tezda kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Misol uchun, qaysi bolani barmoqlari bilan chizish, qoʻl kafti bilan chizish, qogʻozga dogʻlar qoʻyish va kulgili rasm chizish qiziqitirmaydi. Bola oʻz ishida tezda natijalarga erishishni yaxshi koʻradi. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oʻtkaziladigan noanʼanaviy tasviriy faoliyat namunalarini berilgan.

### **Barg izlari.**

Materiallar: qogʻoz, guash, turli daraxtlarning barglari (toʻkilgan barglar), choʻtkalar. Tasvirni olish usuli: bola daraxt barglari turli rangdagi boʻyoqlar bilan qoplaydi, soʻngra bosma olish uchun uni rangli tomoni bilan qogʻozga qoʻllaydi.[3]



Qogʻozga puflab rasm chizish.

Kerakli jihozlar: guash, naycha, qogʻoz. Oq qogʻozga suv qoʻshib tayyorlangan rangdan tomiziladi. Bola naycha orqali shu ranglarni puflaydi hosil boʻlgan rasmni ijodiy tasvirlab beradi.[3]



Bunday noan'anaviy usullar orqali bolalarning ijod quvonchini boshdan kechirgan holda mustaqil ijod qilish istagi va qobiliyatini, fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvurni, fazoviy idrokni hamda kompozitsion ko'nikmalarini va qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni rivojlantirib boriladi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini noan'anaviy usullar yordamida tashkil etish E bolalarda yemotsional va estetik idrokni shakllantirish, bolaning shakllar, ranglar, nisbatlarning ifodaliligini payqash va shu bilan birga o'z munosabati va his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, ular uchun yangi va g'ayrioddiy ishlarni bajarish usullarini joriy etish va estetik dunyoqarashni rivojlantirish, badiiy didni tarbiyalashga ko'maklashilgan bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Nurmatova, Sh.Xasanova. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. «Cho'lpon». T., 2010-y
2. M.Nurmatova, Sh.Xasanova. Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyat metodikasi. «Musiqqa».T., 2010
3. Stiven U.Moye. Zanimatelniye opiti s bumagoy. "Izdatelstvo Astrel".2006



## MORFOLOGIK KOMPOTENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Nodiraxon Obidjonova Ismoiljon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Xossatan, umumtalim maktabi o‘quvchilarida morfologik kompetentlikni shakllantirishda modellashtirilgan dars texnologiyasining samaradorligi alohida ta’lidlanib, “Bozorda” metodini dars jarayonida qo‘llash texnologiyasi bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy pedogogik texnologiya, hamkorlikda ishlash, izlanish-tadqiqot, modellashtirilgan dars, an’anaviy dars, noan’anaviy dars, morfologik kompetentlik, o‘yin texnologiyasi.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchiga etkazishdan iborat. Qachonki, o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa hamda egallangan malaka va ko‘nikmalarini amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblanadi. Bu natijaga erishishda noan’anaviy darslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi bunday darslar markaziga o‘quvchi shaxsi qo‘yilgan bo‘lib, an’anaviy darslardan asosiy farqi ham shundadir.

An’anaviy dars – markazida o‘qituvchi turadigan dars hisoblanib, u 4 bosqichdan iborat bo‘ladi:

Tayyorlov bosqichi. Bunda salomlashish, navbatchi ma’lumotlarini tinglash, kun yangiliklarini tinglash mumkin.

Kirish qism. Bunda o‘tilgan mavzuni so‘rash, yangi mavzuga tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Bu darsning asosini tashkil etib, unda yangi mavzu bayoni, yangi mavzularni mustahkamlash uchun mashqlari bajariladi.

Yakuniy qism. Darsni xulosalash hisoblanib, bunda darsni yakunlash, o‘quvchilarni baholash, uyga vazifalarni berish jarayonlari amalga oshiriladi.

Noan’anaviy darslarda esa faollik o‘quvchilar tomonida bo‘ladi. O‘qituvchi esa bosharuvchi maqomida turadi. O‘quvchiga markazlashgan o‘quv jarayonining ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib boradi;



- ilgari egallangan bilimlarini ham inobatga oladi;
- o‘qish jarayoni tezligini muvofiqlashtiradi;
- o‘quvchi tashabbusi va majburiyatini qo‘llab-quvvatlaydi;
- amaliyot orqali o‘rganishni amalga oshiradi;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta‘minlaydi;
- o‘qish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni amalga oshiradi;
- o‘qituvchi –o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs hisoblanadi;
- o‘quv jarayonini baholaydi.

Ta‘lim olishning noan‘anaviy turlarini shartli ravishda uchga ajratish mumkin:

1. Modellashtirilgan dars - real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o‘quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta‘lim olinishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmuidir. Modellashtirilgan dars real hayotdagi voqea hodisalarni o‘yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishga qaratilgan yo‘l – yo‘riq va usullardan iborat modeldir. Modelashlashtirilgan dars–ta‘lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilish asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

2. Hamkorlikda o‘rganish - o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta‘lim olishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidir. Bu model o‘quvchilarning guruhlarida mustaqil ishlashi evaziga ta‘lim olishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidan iborat. Hamkorlikda o‘rganish “ta‘lim beruvchi–ta‘lim oluvchi” dialogidan voz kechishni va “ta‘lim beruvchi –guruh–ta‘lim oluvchi” ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi. Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o‘rganish guruh a‘zolari va guruhlar o‘rtasida ta‘lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan muloqatda bo‘lish, hamkorlikda ishlash, o‘zaro bog‘liq munosabatlarda mas’uliyatini sezish kabi ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlaydi.

3. O‘rganishning tadqiqot-izlanish modeli – o‘quvchilarni muayyan muammoni echishga yo‘naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmui hisoblanadi. Tadqiqot o‘quvchilarga inson xatti–harakatiga nisbatan savollar qo‘yishni o‘rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko‘maklashadi. Tadqiqot o‘quvchilarda savol qo‘yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashda va berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish davomida o‘quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga



va obyektiv yondashuvga o'rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan o'zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O'quvchilar o'zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborotlar va mantiqlarni qo'llashni o'rganadilar. Ta'lim olishning tadqiqot-izlanish turi oliy darajada fikrlashga imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarda morfologik kompotentlikni shakllantirishda yuqoridagi uch texnologiyaning modellashtirilgan dars turidan foydalanish samarali natija beradi. Zero, o'rganilgan bilim, ko'nikmalarni amaliy qo'llay olish kompotensiyaviy ta'limning maqsadi ekan, ona tili darslarida real hayotni turli vaziyatlarini dars jarayonida modelini yaratish orqali bu maqsadga erishish anchayin osonlashadi.

Undan tashqari mazkur texnologiya : "80+20" metodiga asoslangan bo'lib, bu dars jarayonida 80% o'quvchilarning ishtirokini, va 20% o'qituvchining dars jarayonidagi faolligini ta'minlaydi. Model tushunchasi lotinchada "modelus" so'zidan olingan bo'lib, ni shunday moddiy qurilma sifatida tushunishimiz kerakki, unga muayyan obyekt haqida ma'lumot kiritsak, natija sifatida yana o'sha obyekt yuzaga chiqishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, model real borliqning immitatsiyasidir(o'xshashi,taqlidi).

Modellashtirilgan dars to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular o'quv maqsadlarini aniqlashtirish, tayyorgarlik, o'yinni o'tkazish va tahlil jarayonlaridan iboratdir.

Modellashtirilgan darsning birinchi bosqichi o'quv maqsadlarini aniqlashtirish bo'lib, unda modellashtirilgan dars uchun zarur bo'lgan tushuncha va atamalarni va dars davomida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni aniqlash ishlari amalga oshiriladi va modellashtirilgan darsning maqsadi o'quvchilarga tushuntiriladi .

Ikkinchi bosqich hisoblangan "tayyorgarlik" jarayonida esa quyidagilar amalga oshiriladi:

- rollar taqsimlanadi;
- qoidalar tushuntiriladi;
- o'yinni o'tkazish tartibi bilan tanishtiriladi;
- qisqa sinov mashq raundi beriladi (zarur bo'lganda).

Mazkur darsning uchinchi bosqichi o'yinni o'tkazishjarayoni bo'lib, unda :

- mashqlarni bajariladi;
- o'quvchilar bilan o'yin vaqtida aloqani ta'minlanadi;
- noto'g'ri xatti- harakatlar , xatolarni tuzatiladi;
- mashqlarni davom ettiriladi.

Darsning eng so'nggi bosqichi "tahlil" bosqichi bo'lib, unda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:



- sodir bo‘lgan hodisalar bo‘yicha umumiy xulosaga kelinadi;
- qiyinchiliklarni muhokama qilish va ularni bartaraf etish usullarini topiladi;
- o‘yin jarayonini tahlil qilinadi;
- o‘yinni real hayot bilan solishtirib, ular o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatiladi.

O‘yin ijtimoiy tajribani to‘plash va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Quyida “Bozorda” mavzusida modellashtirilgan dars tashkil qilish loyihasini ko‘rib chiqamiz. Bunda real hayotdagi bozor muhiti dars xonasida shakllantiriladi. Bu orqali o‘quvchilarda fe‘l so‘z turkumiga oid morfologik kompetentlikni shakllantiramiz.

Modellashtirilgan o‘quv darsning maqsadlari:

- o‘quvchilarda fe‘l so‘z turkumi, uning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi, harakat va holat fe‘llari, fe‘l zamonariga oid morfologik kompetensiyalarni shakllantirish;
- mazkur bilimlarning real hayotda qay tarzda qo‘llanilishini “Bozorda” mavzusi orqali ko‘rsatib berish.

Ishtirokchilar:

- 1-o‘quvchi – sotuvchi obrazida ,
- 2-o‘quvchi - sotuvchi obrazida,
- 3- va 4-o‘quvchilar - xaridor obrazida,
- qolgan o‘quvchilar - jarayonni kuzatib boruvchilar.

O‘yinni o‘tkazilishi

dastlab o‘qituvchi kuzatuvchi maqomida turadi va o‘quvchilarga

Kundalik hayotingizda qanday ishlar bilan mashg‘ul bo‘lasizlar?

Yoki ota-onangiz nimlar bilan shug‘ullanadilar? , deb savollar beradi.

Tabiiyki, o‘quvchilar o‘ynaymiz, o‘qiymiz, uxlaymiz, raqsga tushamiz...deb fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlarni sanab ketadilar.O‘qituvchi mana shunday so‘zlar nima qilmoq? nima bo‘lmoq so‘roqlarga javob bo‘lishini, hozir tashkillashtiriladigan bozor muhitida sotuvchi va xaridorlar nutqidan aynan mana shunday so‘zlarni ajratib olib daftarlariga yozib borishlarini aytadi;



sotuvchilar o‘z rastalarida poyabzal sotish bilan mashg‘ul bo‘lib turga holda ikki dugona xaridor sifatida tashrif buyuradilar va bozor muhitini o‘zlarining bilgan-ko‘rganlari yordamida erkin olib boradilar;

kuzatuvchi o‘quvchilar esa ishtirokchilar nutqidan talab qilingan so‘zlarni daftarlariga yozib boradilar;

o‘yin so‘ngida kuzatuvchilar to‘plagan fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlar orqali morfologik kompotensiyalar shakllantiriladi.

Yakunda quyidagi yutuqlarga erishiladi:

- real hayotdagi o‘zlari tanish voqeylklarni dars jarayonida ko‘rgan o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qizishini oshiradi;

- sotuvchi va xaridor obrazlarini yaratish jarayonida o‘z-o‘zidan real hayotiy vaziyatlar uchun ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Mazkur metoddan hayotning turli vaziyatlaridan “Kutubxonada”, “Shifoxonada”, “Darsga kech qolganda”, “Mexmonda” kabi mavzularda ham tashkillashtirish mumkin.

Xulosa

Kompotensiyaviy ta‘lim jarayonida ona tili darslarida zamonaviy pedogogik texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, modellashtirilgan dars texnologiyasining samaradorligi yuqori bo‘lib, buning isbotini yuqorida ko‘rib chiqdik. Bunday darslar orqali o‘quvchilarning nafaqat fanga oid lingvistik kompotensiyalari, balki ularni real hayotning turli vaziyatlarida ham qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari // Xalq ta‘limi. – 1997. – № 2.

2. Inoyatov U., Xodjaev B. Umumta‘limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari // Xalq ta‘limi ilmiy-metodik jurnali, 2016. –№ 2. – B. 8.

3. Ibragimova G. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. Falsafa doktori (PhD). – Toshkent: 2017. – 137 b.

4. Ish muxamedov R. J., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2017. – B. 68.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – B. 101.



6. Nurmonov A., Ziyodullaeva G. O‘quvchilarning til kompetentligi shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma’rifat” gazetasi, 2014 yil 18 iyul.
7. Odilov S. Maktabda “Morfologiya” bo‘limini o‘qitish yuzasidan mulohazalar. 2019, № 5. – B. 16-17.
8. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S.. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. –104 b.



## ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR TA’LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

**Mirsaid Yunusov Xudayarovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

[yunusovm26@gmail.com](mailto:yunusovm26@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kompyuterdan foydalanadigan texnologiyalarni o‘rganish, o‘qitishning kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari, kompyuter o‘qitish vositalari, o‘qituvchi ishida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter ta’limi texnologiyalarini ishlab chiqish haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompyuter texnologiyasi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi, ta’lim, penetratsion" texnologiya, mono-texnologiya, telekommunikatsiya, axborot texnologiyasi, o‘quv apparatlari.

**Annotation:** This article describes in detail the study of technologies using computers, computer (new information) technologies of teaching, computer teaching tools, use of computer technologies in teacher’s work, development of computer education technologies.

**Keywords:** computer technology, hearing-impaired student, education, penetration technology, mono-technology, telecommunications, information technology, educational devices.

Ta’lim jarayonini zamonaviy tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu uni sanoatlashtirish: o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish. Shu bilan birga, kompyuter nafaqat hisoblash ishlarini bajarish va fizikaviy va ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini modellashtirish vositasi, balki o‘qitish uslublari va umuman o‘quv jarayonini tashkil etishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan o‘qitish vositasidir.

Kompyuterdan foydalanadigan texnologiyalarni o‘rganish uchun biz kompyuter texnologiyalari atamasidan foydalanamiz. O‘qitishning kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari bu o‘quvchi uchun ma’lumot tayyorlash va uzatish jarayonlari bo‘lib, uning vositasi kompyuter hisoblanadi.

Kompyuter texnologiyasini quyidagi variantlarda amalga oshirish mumkin:

- "penetratsion" texnologiya sifatida (ma’lum mavzular bo‘yicha kompyuter ta’limidan foydalanish, ba’zi didaktik vazifalar uchun bo‘limlar);



- ushbu texnologiyada ishlatiladigan qismlarning asosiy, aniqlovchi, eng muhim qismi sifatida;

- mono-texnologiya sifatida (barcha mashg'ulotlar, o'quv jarayonini barcha boshqarish, shu jumladan diagnostika, monitoringning barcha turlarini, kompyuterdan foydalanishda)

Kompyuter o'qitish vositalari interfaol deb nomlanadi, chunki ular o'quvchi va o'qituvchining harakatlariga "javob berish", ular bilan suhbatga kirishish, bu kompyuterni o'qitish usullarining o'ziga xos xususiyati.

Ta'lim vositasi sifatida kompyuter ham o'qituvchi, ham talaba uchun yordamchi vazifasini o'tashi mumkin. O'qituvchi uchun bu avtomatlashtirilgan sinf jurnali, so'rovlar o'tkazish va o'quv natijalarini qayta ishlash vositasi, darslarga tayyorgarlik ko'rish va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun vosita. Talaba uchun topshiriqlarni bajarish vositasi, ikkalasi uchun ham haqiqiy dunyoni modellashtirish vositasi. Talaba uchun kompyuter turli funksiyalarni bajaradi: o'qituvchi, o'rganish ob'ekti, hamkorlikdagi jamoa, bo'sh vaqt (o'yin) muhiti.

O'qituvchi ishida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish quyidagi funksiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim jarayonini umuman sinf darajasida, predmetni umuman tashkil qilish (o'quv jarayoni jadvali, tashqi diagnostika, yakuniy nazorat)

2. Sinf ichida faollashtirish va muvofiqlashtirishni tashkil etish, ish joylarini tartibga solish, ko'rsatma berish, sinf tarmog'ida boshqarish.

3. Talabalarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, bola bilan individual "inson" aloqasi. Kompyuter yordamida o'qitishning individual variantlari vizual va eshitish tasvirlari yordamida amalga oshiriladi.

4. Axborot muhiti tarkibiy qismlarini tayyorlash (har xil turdagi o'quv mashg'ulotlari, namoyish uskunalari, kompyuter bilan bog'langan, dasturiy ta'minot va tizimlar, o'quv qo'llanmalari va boshqalar), ularning ma'lum bir o'quv kursining predmet mazmuni bilan aloqasi.

Axborot tayyorlashning bir qismi sifatida kompyuterning asosiy funksiyalarini ta'kidlab o'tamiz:

- ta'lim ma'lumotlarining manbai (o'qituvchi va kitobni qisman yoki to'liq almashtirish);

- ko'rgazmali qo'llanma (multimedia va telekommunikatsiya imkoniyatlariga ega sifat jihatidan yangi daraja);

- [8]. Arnautov V. V., Sergeev N. K. History and current state of continuing teacher education // Educator. 2001. — № 2. — P. 4–11.
- [9]. Maslov V.I. Lifelong learning: approaches to the essence / Maslov V.I., Zvolinskaya N.N., Kornilov B.M. // Works of scholars GSOLIFKA: 75 years: Yearbook. — M., 1993. — P.102–117.
- [10]. Petryaevskaya D. G. G. Continuing Education as a Pre requisite for Overcoming Crises in Teachers' Professional Development: PhD. Candidate of Pedagogical Sciences.. — SPB., 1994. — p.24.
- [11]. Sharipov, Shavkat (2020) "Symbiosis of civilizations as an important factor in the formation and development of scientific thinking in Uzbekistan," Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2020:Iss.1, Article 33. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss1/33>



[12]. Sharipov, Shavkat and Rakhmonova, Gulrukh (2021) "Successive Development of the Creative Person in the Continuous Education," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 4 , Article 1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2021/iss4/1>

[13]. Shavkat S. Sharipov, (2022). "The Continuity of the Process of Developing Creative Individuals in the System of Uninterrupted Education" *International Journal of Special Education* <http://internationaljournalofspecialeducation.com> ISSN 0827-3383, Vol. 37 No. 2 (2022): Volume 37 Number 2 Year 2022

[14]. Sherali S. Abduraimov. Perfection of Technology of Preparation of Future Teachers of Vocational Education To The Designing Activity The Main Contents Of The Dissertation // *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8s, (2020), pp. 2205-2215

[15]. Sherali S. Abduraimov (2022). "Stages of Inter-Industry Integration in Ensuring the Quality of Training and Employment of Personnel" *International Journal of Special Education* <http://internationaljournalofspecialeducation.com> ISSN 0827-3383, Vol. 37 No. 2 (2022): Volume 37 Number 2 Year 2022



## BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI HUSNIXATGA O‘RGATISH USULLARI

**Xurriyat Rajabova O‘ktamboyevna**

Samarqand shahar 38-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatish usullari, jumladan keyslardan foydalanish tushuntirib berilgan,

**Kalit so‘zlar:** Husnixat, o‘qituvchi, o‘quvchi, keys, bilim, vaziyat.

**Annotation:** This article explains methods of teaching elementary students to write well, including the use of cases,

**Keywords:** Husnixat, teacher, student, case, knowledge, situation.

Inson hayotida yozuvning o‘rni be‘qiyosdir. Chunki yashash jarayonida har-bir kishi turli xil hujjalardan, rasmiy qog‘ozlardan va shunga o‘xshash yozuv turlaridan foydalanishadi. Yozuv turlaridan foydalanganda bexato va chiroyli yozish talab etiladi. Demak, o‘quvchilarning yozuvlari chiroyli va bexato bo‘lishi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yozuvi chiroyli va bexato bo‘lishi shart. Bunga erishish uchun esa yozuv tamoillarini, usullarini, vositalarini, uslubiyatlarini mukammal bilishga harakat qilish kerak.

Axborot texnologiyalari kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir davrda qo‘lda yozilgan hujjatlarga e‘tibor biroz susaymoqda. Shu sababli kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish masalasi dolzarb pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Biz shaxsiy-kasbiy faoliyatimizda turli xil muammoli vaziyatlarga duch kelamiz, aynan shu vaziyatlarning muqobil yechimini izlash, yuzaga kelgan har qanday muammoli vaziyatning yechimini topa olish, istiqbolli rejalarni tadbiq qila olish bizning bilim, tajriba va mahoratimizga bog‘liqdir. Jumladan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirishda vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o‘rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi keyslardan zamonaviy usul sifatida foydalanishimiz mumkin.

Husnixatga o‘rgatishda “Keys-stadi” texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, yozuvga oid muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning yozuv texnikasi bo‘yicha qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari, ya‘ni keys-stadi (ingilizcha “case”-hodisa, holat – amaliy muammolar yig‘indisi<sup>1</sup>, stadi-o‘quv) texnologiyasi

bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat deganidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida keyslardan foydalanish samarali natijalar bermoqda.

O'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishda quyidagicha keyslardan foydalanish mumkin. Birinchi va ikkinchi keyslar tinglovchi muhokamasi uchun, uchinchi va to'rtinchi keyslar o'quvchilar uchun qo'llaniladi.

#### Keys №1

Ona tili darsida bir o'qituvchi o'quvchilarga: "O'rtog'ingdan ko'chirma!", "O'zing yoz, birovlarning daftariga qarama!", "Obbo, ko'chiradigan odamingni ham topibsanni-a! Uning o'zi xatto ko'chirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu!" singari zaharxanda so'zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa boshqa bir o'qituvchi darsiga yo'l-yo'lakay, albatta ta'sirli qilib: "Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko'chirayotgani yo'q!", - dedi.

#### Keys savollari:

1. Birinchi o'qituvchi o'quvchiga muloqotning qaysi turidan foydalanib murojaat qildi? Pedagogik talabni shunday tarzda qo'yish qanchalik to'g'ri?
2. Ikkinchi o'qituvchi tomonidan pedagogik muloqot jarayoniga qo'yilgan talab buzilmoqda. O'qituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

#### Ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

#### Keys №2

Uzoq yillik ish tajribasiga ega bo'lgan, o'quvchilar o'rtasida alohida hurmatga sazovor ona tili fani o'qituvchisi sinfga kirib, xattaxtaga sana va mavzuni juda yomon yozuvda, ya'ni husnixat qoidalarini buzib yozdi. Va hech nima bo'lmagandek darsni davom ettirdi.

Sinfda shivir-shivir boshlandi.

#### Keys savollari:

- O'qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan siz qanday baholaysiz?  
Bu vaziyatda o'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'lladi?

O'qituvchi nima uchun husnixat qoidalariga amal qilmadi?

O'qituvchi bu bilan nima demoqchi edi?

Keys tahlili:

Bu vaziyatda o'qituvchi o'zining pedagogik tajribaga egaligini namoyon etadi. U bu yozuvni o'zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, tarbiya, ta'lim sifatida qildi. Natijada o'quvchilar o'qituvchining yozuvi bilan o'zlarning yozuvlarini taqqosladilar. Bunday yondashuv o'quvchilarga o'qituvchining noverbal muloqot orqali harakat qilganligini anglatadi.

Ko'rsatmalar:

Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

Muammoning samarali yechimini ifodalovchi tarbiya metodlari tizimini aniqlang.

Aniqlangan tarbiya metodlari tizimi orasidan muammoga ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.

Ajratib olingan metodlar asosida o'qituvchining voqeaga nisbatan munosabatini asoslashga urining.

Yechimni bayon eting.

### Keys № 3

1. O'quvchilarga muammo beriladi: "O'rtog'ingiz chiroyli yozmaydi, lekin u o'z yozuvini yomon deb hisoblamaydi. Bu holatda sizning harakatingiz".

2. Muammo tahlili:

O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qiladilar.

1. Usullar ichidagi eng muhimini ajrating.
2. Ushbu usullarni qay holatlarda ishlatasiz?
3. O'quvchi javobi.

### Keys № 4

1. O'quvchilarga muammo beriladi: "Nargiza juda ko'p harakat qilgani bilan yozuvini tuzata olmayapdi". Tavsiyalaringiz?

2. Muammo tahlili:

O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qiladilar.

1. Usullar ichidagi eng muhimini ajrating.
2. Ushbu usullarni qay holatlarda ishlatasiz?
3. O'quvchi javobi.

O'qituvchi fikrlar ichidan eng muhim deb hisoblaganlarini ta'kidlab o'tadi.

Husnixat darslari orqali o'quvchilarda yozuv texnikasini shakllantirar ekanmiz, yozuvga bo'lgan e'tibor doim diqqat markazda bo'lishi va uni amalga oshirish uchun



har bir o'qituvchidan yuksak kasb mahorati va hattotlik san'ati talab etiladi. O'qituvchilarimiz husnixat daqiqalarini zamonaviy metodlar orqali tashkil etishsa, yosh avlod og'zaki va yozma nutqi ravon, har tomonlama yetuk insonlar bo'libgina qolmasdan, go'zallikka intiluvchi va uni yurakdan his qila oluvchi, go'zallikni yaratishga intiladigan shaxslar bo'lib voyaga yetadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent-2015
2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Mehrangiz Abrayeva Bekmurza qizi**

Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta‘lim berish, ularni ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish usullaridan na‘munalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, innovatsiya, topishmoq, ijod, fikr, dunyoqarash, qobiliyat.

**Annotation:** This article provides examples of ways to educate students, expand their scientific outlook, and reveal their abilities using modern scientific and technical achievements.

**Keywords:** education, innovation, riddle, creativity, thought, outlook, ability.

Bugungi kunda ta‘lim oluvchilarning ijodiy va erkin fikrlash, axborotni mustaqil ravishda izlash va topish, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta‘limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat masalasi hamma vaqt odamlarning juda katta qiziqishini uyg‘otib kelgan. Ammo o‘tmishda inson ijodiyotini o‘rganishi uchun alohida talab yo‘q edi. Inson madaniyatining rivojlanishida turli ilmiy izlanishlar, ixtirolar, san‘at va adabiyot asarlari yaratilib, o‘z-o‘zidan qobiliyatlar paydo bo‘la boshlagan.

Bizning davrimizda sharoitlar tubdan o‘zgardi. Ilmiy texnik rivojlanish davrida hayot murakkabroq va xilma-xil bo‘la boradi. Bu esa insonlardan takroriy, bir xillikni emas, balki katta va kichik muammolarni yechishda unga ijodiy yondashish kerakligini, yangi sharoitga yangicha munosabat zarurligini va unga moslashishni talab etadi.

Agarda ko‘pgina kasblar uchun aqliy mehnatning o‘rni o‘sib borayotganligi haqidagi dalilni hisobga olsak, bajariladigan mehnat faoliyatning eng ko‘p miqdori mashinalar yordamidir. Bundan ayon bo‘ladiki, inson ijodiy iqtidori ilmiy-texnologiyalar rivojining muhim qismi bo‘ladi-bu esa zamonaviy inson tarbiyasining eng muhim masalalaridan sanaladi.

Axir jamlangan barcha madaniy boyliklar inson ijodiy faoliyatining samarasidir. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy salohiyati inson jamiyatining kelajakda oldinga ilgarilab borishida aniq namoyon bo‘ladi.

Doimo ijodiy qobiliyatli bo‘lish – bu kuchlilikdan dalolat beradi. Kelajakka ijodiy qobiliyat bilan intilish, bu har qanday sharoitda muammoli masalalarni hal qilishga tayyor hamda yangi g‘oyalar ishlab chiqishga qodir demakdir.

Aslida, ijodiy qobiliyatning o‘zi nima?

“Ijodiy faoliyat” deganda biz insonning shunday faoliyatini tushunamizki, uning samarasi o‘laroq xox bu tashqi dunyo predmeti bo‘lsin yoki butun borliqqa yangi munosabat hissi bo‘lsin ularga oid yangi bir narsa yaratiladi.

Qaysi jabhada bo‘lmasin inson hatti-harakati va faoliyatini diqqat bilan ko‘rib chiqsak, unda uning asosiy turini ko‘rishimiz mumkin. Insonning ba‘zi bir harakatlarini reproduktiv va ishlab chiqilgan yoki dasturlashtirilgan deb atash mumkin. Faoliyatining bu turi bizning xotiralarimiz bilan uzviy bog‘liq va uning mazmun mohiyati shu bilan bog‘liqki, inson oldin mavjud bo‘lgan hatti-harakatlarni takrorlaydi. Inson hatti-harakatida reproduktiv faoliyatdan tashqari ijodiy faoliyat ham mavjud, uning samarasi o‘laroq o‘tmishdagi tasavvur va harakat malakalarining ishlatilishi emas, balki yangi obraz va harakatlar paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Ta’limga ijodiy yondashuv – shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni to‘la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etish masalalarini B.R.Adizov tahlil qilib, quyidagi uchta tarkibiy qismlarini ajratadi: ijodiy ta’limni tashkil etish, bolalarning o‘quv materiallarini ijodiy o‘zlashtirishi, ta’lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Uning yozishicha, ijodiy ta’limni tashkil etish – bu o‘quv material bilan o‘quv faoliyati o‘rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir. Ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma-bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs faolligi turli, ya’ni o‘quv, ilmiy, ishlab chiqarish kabi ijodiy faoliyatlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi.

O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni boshlang‘ich sinflardanoq rivojlantirib borish lozim. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir nechta usularni ko‘rib chiqamiz.

«Kim tez topa oladi? o‘yini

Sinf o‘quvchilari bir necha guruhga ajratiladi. O‘qituvchi biron predmet yoki ish quroli rasmini o‘quvchilarga ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi bergan savollar orqali rasmdan kerakli predmet yoki shaxsni ko‘rsatishadi.

Masalan: chinor, terak, olma daraxtlarining rasmini ko‘rsatib quyidagi savollarni beradi.

1. Uzoq umr ko‘ruvchi daraxt qaysi?
2. Qaysi daraxt meva beradi?

3. Qaysi daraxt manzarali daraxt?

*Tasvirli didaktik o‘yin*

Tasvirda nima aks ettirilgan? Tasvir nimalardan tashkil topgan?



O‘quvchilar tasvirda yashiringan sonlarni topish orqali ularni eslab qolish va qo‘l harakatini to‘g‘ri ishlatishga o‘rganadilar. Ular o‘ynab yurganda yerga, daftarga, boshqa joylarga tasvirni chizish orqali ham sonlarni eslab qolish ko‘nikmalarini egallashlari orqali ijodkorliklari rivojlanadi.

“Fikrni charxlash” o‘yini

O‘yinning maqsadi o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birgalikda hisoblash malakalarini ham shakllantirishdan iborat.

O‘yinda sonlar o‘rniga ularning harfiy ifodasi ko‘rsatiladi, javob ham harfiy ifoda bilan berilishi talab qilinadi:

$$i + i = t$$

Ya’ni:  $i = 2, t = 4, a = 5, r = 6 \dots\dots$

$$2 + 2 = 4$$

Bu o‘yinda o‘quvchilar harfiy ifoda o‘rnida qanaqa son borligini mantiqiy fikrlab, o‘zlari ham ifodaning harfiy javobini yozadilar.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchi ta’lim jarayonida eshitib, ko‘ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o‘rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta’minlashi zarur. O‘qituvchi faqat o‘qitibgina qolmay, o‘quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Agar o‘qituvchi ta’lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o‘qib o‘rganib, o‘zlashtirib, o‘z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan



Davlat ta'lim standartlarini va modernizatsiya qilgan o'quv dasturlarini to'la o'zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abidov O., Qurolov Q., Nishonboeva I. O'quv adabiyotlarining o'quvchilar faoliyatidagi o'rni. Pedagogik ta'lim. 2016.
2. Abdurahmonova Sh.A. Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. №1. Toshkent-2008 y.
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

**Uldan Xujamiyarova Alimuratovna**

Qibray tumanidagi 48-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,  
xalq ta‘limi a‘lochisi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlag‘ich ta‘lim tabiiy fanlar darslarida sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** amaliy ishlar, tajriba, obyekt, tabiiy fanlar, ekskursiya, sovuq olov, lava, kislota.

**Annotation:** In the article, extracurricular activities in natural science classes of primary education in the process, thoughts were given about effective methods of organizing practical activities to introduce children to nature.

**Keywords:** practical work, experience, object, natural sciences, excursion,

O‘quvchilarning bolajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo‘lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o‘ynab kelgan va kelmoqda.

Ma‘lumki, keyingi yillarda maktab ta‘limida ancha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shulardan eng yaxshisi, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darsligining yaratilishidir. Yil oxirida har bir o‘quvchimdan “Qaysi fanni sevib o‘qiysan?” deb so‘raganimda, albatta “tabiiy fanlar” deb javob berdi. Bu albatta darslikda berilgan amaliy tajribalar hamda o‘zim sinfdan tashqari o‘tkazgan amaliy tajribalarim natijasidir.

Yil davomida 2-sinfda sinfdan tashqari turli amaliy tajribalar o‘tkazib bordim. Quyida shulardan bir nechtasini keltirmoqchiman.

“O‘z vulqoningni hosil qil!”


Buning uchun 2 choy qoshiq oziq -ovqat sodasini kichikroq shisha bankaga solish kerak. Bankani yumshoq loy yoki plastilin bilan suvab chiqamiz. Natijada vulqon modeli tayyor bo‘ladi.

Endi bankaga 100 ml uksus quyamiz va “vulqon” otilishini kuzatamiz. Unga ozroq oziq-ovqat bo‘yog‘ini qo‘shsak, har xil rangli “lava” hosil bo‘ladi.

Kislota

1. Qizil karamni mayda qilib to‘g‘raymiz. Biror idishga solib, idishni qaynoq suv bilan to‘ldiramiz.

2. Karam damlamasiga xohlagan moddani solib aralastiramiz. Kislotani uni yorqin qizil rangga bo‘yaydi. Avval unga limon sharbatini qo‘shamiz, keyin bir qoshiq oziq-ovqat sodasi solib, avvalgi jarayonni qaytaramiz. Soda ishqor, yan‘ni oz‘ xossasi bilan kislotaga qarama-qarshi modda. Ishqor karam damlamasini yashil rangga bo‘yaydi.



3. “Ranglardan O‘zbekiston bayrog‘i” ni hosil qilish.



5 ta bir xil idish olamiz va unga suv solamiz. Suvlarga bo‘yoq beramiz.

- 1-idish- yashil
- 2-idish- qizil
- 3-idish- oq
- 4-idish- qizil



#### 5-idish-ko'k rang

1-idishga 4 qoshiq shakar, 2-idishga-3 qoshiq shakar, 3-idishga-2 qoshiq shakar, 4-idishga -1 qoshiq shakar solamiz, 5-idish shakarsiz bo'ladi.

Ranglarni probirkaga ketma -ket solamiz. Natijada har xil rangli suvlar hosil bo'ladi. Biz o'quvchilarimiz bilan "O'zbekiston bayrog'i" ranglarini hosil qildik.

#### 4. "Sovuq olov" hosil qilish.

Buning uchun katta idish (tog'oracha)ga suv to'ldiramiz.

Suvga suyuq sovun solamiz, so'ngra sovunni ko'pik qilib aralashtiramiz. Aralashmaga "havo spreyi" yuboramiz. Hosil bo'lgan ko'piklarni qo'limizga olamiz va ko'piklarga gugurt chaqamiz. Ko'pik yonadi va olov hosil bo'ladi. Eng qiziqarlisi, bu olovdan qo'lingiz kuymaydi.

#### 5. "Sovuq va issiq".

##### "Termometr"

mavzusini o'rganganimizda ushbu tajribani bajarib ko'rdik.

Tangachani suvda ho'llab, ochiq plastik butilka og'zining yuqorisiga qo'ying. Ikki qo'l bilan butilkani biroz ushlab turamiz.

Tangacha biroz ko'tarilganini kuztamaiz.

Chunki bizning qo'limiz butilkani isitdi, havo isiganda u kengayadi va tangachani yuqoriga itaradi.

#### 6. Antiqa telefon.

Bu kabi amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga atrof olamni o'rganishda yaqindan yordam beradi. Fanni hayot bilan bog'lashga, dunyoni ilmiy anglashiga yordam beradi.

Bizga kerak	Bajarish tartibi
<p>2 ta qog'oz stakan</p>  <p>Ingichka chilvir (ip)</p>  <p>Cho'plar</p> 	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Qog'oz stakanlar ostidan teshik oching.</li><li>2. Stakan tubidagi teshiklardan ip o'tkazib, yog'och cho'pni bog'lang.</li><li>3. Stakanlarga bog'langan ipni tarang tortib, bir o'quvchi stakanni qulog'iga qo'yadi, yana bir o'quvchi ikkinchi stakanga oldin past, keyin baland tovushda gapiradi.</li><li>4. Ip tarang tortilmagan holatda tajribani takrorlang.</li><li>5. "Antiqa telefon"da eshitilgan tovushlarni taqqoslang.</li></ol>

Ip tarang tortilganda tovush yaxshi eshitildi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabiiy fanlar 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent:



Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.

2. “Yosh erudit” . Mening birinchi ensiklopediyam. -Toshkent ; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.

## SURXONDARYO VILOYATIDA TARQALGAN ARSLONQUYRUQ( LEONURUS TURKESTANICUS V.I. KREZ. & KUPRIAN ) HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR VA OLIB BORILGAN TAJRIBALAR

**Sevara Raximova Turayevna**

Termiz davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Surxondaryo viloyatida tarqalgan Arslonquyruq o'simligining biologiyasi va uning geografik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, Arslonquyruq o'simligining biologiyasiga xos xususiyati viloyatning iqlimi va geografik sharoiti bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** gullash biologiyasi, urug' unuvchanligi, rivojlanish maromi.

**Annotation:** The article discusses the biology of the lion's tail plant and its geographical features, distributed in the Surkhandarya region. Also, it is shown that the biological feature of the lion's tail plant is related to the climate and geographical conditions of the region.

**Keywords:** flowering biology, seed germination, developmental cycle.

Turkiston arslonquyruq'i (*Leonurus turkestanicus* V.I. Krecz. & Kuprian) Lamiaceae oilasiga mansub bo'yi 50-150 (ba'zan 200) sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlikdir. Poyasi bir nechta, to'rt qirrali, tik o'suvchi, shoxlangan. Bargi oddiy, panjasimon besh bo'lakli, yuqoridagilari uch bo'lakli bo'lib, poyada bandi bilan qarama qarshi joylashgan. Gullari 5 bo'lakli, ikki labli, poyaning yuqori qismidagi barglar qo'ltig'ida halqa shaklida o'rnashib, boshqosimon to'pgul hosil qiladi. Mevasi uch qirrali, to'q jigarrang 4 ta yong'oqchadan tashkil topgan [1]. Iyun oyidan sentyabrgacha gullaydi va mevasi etiladi. Ildiz tizimi tuproqda sayoz joylashgan [3]. *Leonurus turkestanicus* o'simligi yog'ochlangan ildizpoyali, ildiz tizimi tuproqning 20 sm li yuza, qatlamida tarqalgan ko'p yillik o'tsimon o'simlik [2] bo'lganligi uchun ushbu o'simlikni kuzda va erta bahorda ekib ko'paytiriladi. Bundan tashqari *Leonurus turkestanicus* o'simligini erta bahorda ekib kech kuzda yog'ochlangan ildizpoyasidan ko'chirib o'tqazish mumkin.

Tajribalar va natijalar: Arslonquyruq o'simligining kuzda yog'ochlangan ildizpoyasidan ko'chirib o'tqazilgan variantlarda ko'chatlarning bo'yi, o'rtach 15 sm ni, unib chiqqan ko'chatlarni yanagi kuz oyigacha saqlanishi 78% ni tashkil etdi. Bahor oyida ekilgan ko'chatlarning bo'yi, o'rtach esa, 20 sm ni tashkil etib kuchatlarni kuz fasligacha 90% i saqlanib qolganligi kuzatildi[4].

Termiz sharoitida, 2021-yil 11-aprelda ekilgan arslonquyruqning birinchi kurtaklari 20 kundan keyin, yani– 2021-yil 1-mayda va yalpi nishlash esa - 26 kundan keyin (06.05.21) qayd etilgan. Birinchi yetarlicha rivojlangan uchtalik barg yalpi nishlashdan 4 kun o‘tgach paydo bo‘ldi (10/05/2021). Besh bargli faza 11 kundan keyin (21/05/21) boshlandi. Beshta barg paydo bo‘lganidan bir hafta o‘tgach (2021-yil 28 may) to‘g‘ri tetraedral poya faol rivojlana boshladi. Arslonquyruq ko‘p yillik o‘simlik bo‘lganligi sababli, uning vegetatsiyasining birinchi yili yalpi shoxlanish fazasining yo‘qligi bilan tavsiflanadi. 2021-yilda nafaqat yalpi shoxlanish bosqichining boshlanishi, balki yalpi gullash ham qayd etilmagan. Bundan tashqari, kurtaklari iyul oyining oxirida (30.07.21) ochila boshladi va gullash bosqichining umumiy davomiyligi taxminan 27 kun edi. Bu yil oz sonli o‘simliklar urug‘ hosil qildi.

### 3.1-jadval

Bahorgi ekish davrida arslonquyruq o‘simliklarining rivojlanish fazasi, 2021–2022-y

O‘simliklarning rivojlanish bosqichlari											
Unib chiqish		3 talik barg fazasi	5 talik barg fazasi	Poya shaklanishi va o‘shishi		Shoxlanish		G‘unchalash		Gullash	
boshlanishi	yalpi			boshlanishi	yalpi	boshlanishi	yalpi	boshlanishi	yalpi	boshlanishi	yalpi
01.05	06.05	10.05	21.05	28.05	10.06	28.06	-	23.07	-	30.07	
01.03-O‘shishda davom etdi				12.03	26.03	10.04	18.04	01.05	05.05	08.05	18.05

Keyingi yillarda vegetativ massaning o‘shishi mart oyining birinchi kunlarida kuzatildi, bu fevral oyida va bahor davrining boshida qulay harorat rejimi tufayli ro‘y berdi. Vegetatsiyaning ikkinchi yilida (2022-yil) o‘shish fazasining boshlanishi qayta o‘shishdan 11 kundan keyin (12/03/22) qayd etilgan. Shoxlanish fazasining boshlanishi esa qayta o‘shishdan 25 kundan keyin (10/04/22) qayd etilgan.

Poya hosil bo‘lishi boshlanganidan ikki hafta o‘tgach ommaviy poya o‘shishi kuzatildi va vegetatsiyaning birinchi yilida (2021-yil) uning davomiyligi taxminan 56 kundi tashkil etdi. 2022-yilda qator oralig‘i 45 sm va 60 sm bo‘lgan keng qatorli

uchastkalarda poyadan 14 kun o‘tgach, shoxlanish fazasining boshlanishi (10.04.22) qayd etilgan. Bu vegetatsiya yillarida vegetativ massaning faol rivojlanish davomiyligi deyarli bir haftaga qisqardi va mos ravishda 49 va 50 kunni tashkil etdi. Bunga sabab ekish davri, shuningdek, aprel oyidagi quruq va issiq meteorologik sharoit ta’sir ko‘rsatdi. Vegetatsiyaning ikkinchi yilidan (2022-yil) boshlab, tajribaning barcha variantlarida ommaviy gullash bosqichi kuzatildi. 2022-yilda g‘unchalashning boshlanishi 2022-yil 1-mayda kuzatilgan, yalpi g‘unchalash esa 4 kundan keyin (2022-yil 5-may) boshlangan. G‘unchalar 3 kundan keyin (05.08.22) va ommaviy ravishda - 10 kundan keyin (18.05.22) ochiladi. Gullash davri 06/10/16 gacha davom etdi va 24 kunni tashkil etdi.

Laboratoriya sharoitida urug‘ namligini aniqlash yo‘li bilan urug‘larning pishishi fazalari davrlari aniqlandi (3.2-jadval). Vegetatsiyaning birinchi yilida (2021-yil) sut pishish bosqichi avgust oyining uchinchi o‘n kunligida (26.08.21) kuzatildi. 14 kundan so‘ng (09/09/21) pastasimon (Pasta holati - bu o‘tish davri bo‘lib, unda don juda katta bo‘lib qoladi, lekin plastik moddalar oqimi sezilarli darajada sekinlashadi) holatning boshlanishi qayd etildi, 7 kundan keyin (16/09/21) - mumsimon va 8 kundan keyin (09/23/21) – qattiq (to‘liq pishish) holatga o‘tishi aniqlandi.

### 3.2-jadval.

Bahorgi ekish davrida arslonquyruq o‘simligi urug‘ining pishib yetish bosqichlari, 2021–2022 yillar

Yillar	Urug‘larning pishib etish bosqichlari					Qattiqlashish
	Sut pishish	Pasta pishish	mum pishishi			
			boshlanishi	o‘rta	tugashi	
2021	01.09	09.09	16.09			23.09
2022	10.06	21.06	28.06	06.07	06.07	15.07

2022-yilgi tadqiqotlarga ko‘ra, urug‘lik materialining yetilish fazalarining davomiyligi biroz o‘zgargan. Urug‘ hosil bo‘lishining boshlanishi 2022-yil 10 iyunda kuzatildi. Keyingi bosqichlarning boshlanishi vaqti har xil ekish usullariga ega bo‘lgan uchastkalarda har xil edi. Urug‘lar 30 va 45 sm qator oralig‘ida (21.06.2022) pastasimon holatga kelganida, qator oralig‘i 60 sm bo‘lgan uchastkalarda ular allaqachon mum pishishining boshida edi. 2022-yil 28-iyunda tajribaning barcha variantlarida mum pishishining boshlanishi bosqichi kuzatildi. Keyingi o‘rim-yig‘im



davrida 30 va 45 sm qator oralig'idagi urug'lar o'rta mum pishib etish bosqichida, 60 sm esa oxirida edi. Arslonuyruq o'simligining vegetativ massasi rivojlanishining to'xtashi va urug'larning to'kilishi vegetatsiyaning birinchi (2021-yil) yilida oktyabr oyining uchinchi o'n kunligigacha, 22-yilda esa - avgust oyining uchinchi o'n kunligigacha davom etdi. Oktyabr-noyabr-dekabr oylarida havo haroratining bosqichma-bosqich pasayishi qishda o'simliklarning qulay adaptatsiyasiga yordam berdi.

Xulosa va tavsiyalar: Shunday qilib, vegetatsiyaning birinchi yilida ob-havo sharoitlari va yoshga bog'liq fiziologik o'zgarishlar tufayli o'simlikning vegetatsiya davrining davomiyligi o'rtacha 184 kun 2022-yilda esa 182-183 kunga kamaydi.

Fenologik kuzatishlar olib borilganda ma'lum bo'ldiki, rivojlanishning gullash va mevalash fazasi arslonquyruq o'simligining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekstremal meteorologik sharoitlar tufayli fazalararo davrlarning sezilarli qisqarishi vegetativ fazalarda ham kuzatilgan. Biroq, shonalash va gullash davrlarining qisqarishi, shuningdek, urug'larning tez pishishi urug'lik hosilining pasayishiga va uning sifatining yomonlashishiga olib keladi. O'zbekistonning sug'oriladigan (sho'rlangan tuproqlardan tashqari) barcha yerlarida ekib o'stirish mumkin. Arslonquyruqdan yuqori hosil yetishtirish uchun uni unumdor suv bilan yaxshi ta'minlangan yerlarga ekishni tavsiya qilamiz. Haydab ekilayotgan ekinlardan bo'shagan yerlarga ekish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алябышева Е.А. Онтогенез пустырника пятилопастного (*Leonurus quinquelobatus* L.) / Е.А. Алябышева, Т.В. Ермакова // Онтогенетический атлас растений / отв. ред. проф. Л.А. Жукова – Йошкар-Ола: Марийский государственный университет, 2011. – 336 с.
2. То'xtayev В.У. О'zbekistonning sho'r yerlarida dorivor o'simliklarning introduksiyasi.: avtoref. dis. ... dok. biol. nauk.-Tashkent: AN RUZ. 2009. -23 s.
3. Зайко Л.Н..Атлас лекарственных растений России / Отв.редактор. – М.: ООО «Щербинская типография», 2006. – 351 с.
4. Ismoilova Salyajon, Farmatsevtika sanoati uchun noyob dorivor o'simliklarni yetishtirish, "Science and Education" Scientific Journal, Volume 1 Issue 3, June 2020, 11-16 с

**DISKRET PARAMETRLI IKKINCHI TARTIBLI OPERATORLI  
MATRITSANI CHIZIQLILIKKA TEKSHIRISH****Behzod Xolmurodov Botir o'g'li**

Buxoro davlat Pedagogika instituti "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi.

**Tolibjon Mansurov Ziyodullo o'g'li**

Buxoro davlat Pedagogika instituti "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Panjaradagi soni saqlanmaydigan zarrachalar sistemasiga mos keluvchi blok operatorli matritsalarining spektral xossalarini o'rganish bilan bog'liq masalalar statistik fizika, qattiq jismlar fizikasi, mexanika va gidrodinamikaning ko'plab sohalarida uchrab turadi. Shu nuqtai nazardan ushbu mavzu dolzarb hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Gilbert fazosi, Fok fazosi, skalyar ko'paytma, kompleks fazo, qo'shma operatorlar, o'z – o'ziga qo'shma operator.

**Annotation.** Issues related to the study of the spectral properties of block-operator matrices corresponding to a system of particles whose number is not conserved in the lattice are found in many areas of statistical physics, solid-state physics, mechanics, and hydrodynamics. From this point of view, this topic is relevant.

**Keywords:** Gilbert space, Fok space, scalar product, complex space, additive operators, self – adjoint operator.

$H_0 := \mathbb{C}$  - bir o'lchamli kompleks fazo,  $H_1 := L_2(\mathbb{T}^d)$  -  $\mathbb{T}^d$  da aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi, (umuman olganda, kompleks qiymatli) funksiyalar Gilbert fazosi bo'lsin.  $H^{(2)}$  orqali  $H_0$  va  $H_1$  fazolarning to'g'ri yig'indisini belgilaymiz, ya'ni  $H^{(2)} := H_0 \oplus H_1$  [1].

Odatda,  $H^{(2)}$  Gilbert fazosiga Fok fazosining qirqilgan ikki zarrachali qism fazosi deyiladi.  $H^{(2)}$  Gilbert fazosining ixtiyoriy  $f$  elementi  $f = (f_0, f_1)$  kabi tasvirlanadi, bunda  $f_0 \in H_0, f_1 \in H_1$  [1].

$f = (f_0, f_1) \in H^{(2)}$  elementning normasi

$$\|f\| = \sqrt{\|f_0\|_0^2 + \|f_1\|_1^2}$$

formula yordamida topiladi:

$$\|f_0\|_0 = |f_0|, \|f_1\|_1 = \sqrt{\int_{\mathbb{T}^d} \int_{\mathbb{T}^d} |f_1(t)|^2 dt}.$$

Ikkita  $f = (f_0, f_1), g = (g_0, g_1) \in H^{(2)}$  elementlarning skalyar ko'paytmasi  
 $(f, g) = (f_0, g_0)_0 + (f_1, g_1)_1$

kabi topiladi:

$$(f_0, g_0)_0 = f_0 \cdot \overline{g_0}, (f_1, g_1)_1 = \int_{\mathbb{T}^d} f_1(t) \overline{g_1(t)} dt.$$

$H^{(2)}$  Gilbert fazosida quyidagi ikkinchi tartibli

$$A_2^{(s)} := \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} & \hat{A}_{01} \\ \hat{A}_{01}^* & \hat{A}_{11}^{(s)} \end{pmatrix} \quad (1)$$

operatorli matritsani qaraymiz, bu yerda

$$A_{ii}: H_i \rightarrow H_i, \quad i = 0, 1, A_{01}: H_1 \rightarrow H_0$$

operatorlar quyidagicha aniqlangan:

$$\hat{A}_{00}^{(s)} f_0 = s \varepsilon f_0, f_0 \in H_0;$$

$$\hat{A}_{01} f_1 = \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_1(t) dt, f_1 \in H_1;$$

$$(\hat{A}_{11}^{(s)} f_1)(x) = (-s \varepsilon + u(x)) f_1(x), f_1 \in H_1.$$

Bunda,  $s = \pm \varepsilon$  – haqiqiy son,  $v(\cdot)$  va  $u(\cdot)$  lar haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar,  $\alpha > 0$  – esa “ta’sirlashuv parametri”,  $\hat{A}_{01}^*$  operator mos ravishda  $\hat{A}_{01}$  operatorga qo’shma operatorlar bo‘lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

$$(\hat{A}_{01} f_1, f_0) = (f_1, f_0 \hat{A}_{01}^*)$$

$$\begin{aligned} (\hat{A}_{01} f_1, f_0) &= \left( \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_1(t) dt, f_0 \right) = \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t) f_1(t) dt, \bar{f}_0 = \\ &= \int_{\mathbb{T}^d} \overline{\alpha v(t) f_0} f_1(t) dt = \int_{\mathbb{T}^d} f_1(t) \overline{\alpha v(t) f_0} dt \end{aligned}$$

$$\hat{A}_{01}^* = \alpha v(t) f_0$$

$$(\hat{A}_{01}^* f_0)(x) = \alpha v(x) f_0, f_0 \in H_0.$$

1 – lemma.  $H^{(2)}$  Gilbert fazosida (1) formula orqali ta’sir qiluvchi

ikkinchi tartibli  $A_2^{(s)}$  operatorli matritsa chiziqli, chegaralangan va o‘z – o‘ziga qo’shma operator bo‘ladi [2].

Isbot. Ixtiyoriy  $a, b \in \mathbb{C}$  kompleks sonlar va ixtiyoriy  $f = (f_0, f_1), g = (g_0, g_1) \in H^{(2)}$  elementlar uchun

$$A_2^{(s)}(af + bg) = aA_2^{(s)}f + bA_2^{(s)}g$$

tenglikni tekshirish orqali  $A_2^{(s)}$  operatorli matritsaning chiziqli operator ekanini isbotlaymiz.

Dastlab,

$$A_2^{(s)} f := \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} & \hat{A}_{01} \\ \hat{A}_{01}^* & \hat{A}_{11}^{(s)} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} f_0 \\ f_1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} f_0 + \hat{A}_{01} f_1 \\ \hat{A}_{01}^* f_0 + \hat{A}_{11}^{(s)} f_1 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} s\varepsilon f_0 + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)f_1(t)dt \\ \alpha v(x)f_0 + (-s\varepsilon + u(x))f_1(x) \end{pmatrix}$$

ekanligini ta'kidlab o'tamiz.

$$\begin{aligned} A_2^{(s)}(af + bg) &= \\ &= \begin{pmatrix} s\varepsilon(af_0 + bg_0) + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)(af_1(t) + bg_1(t))dt \\ \alpha v(x)(af_0 + bg_0) + (-s\varepsilon + u(x))(af_1(x) + bg_1(x)) \end{pmatrix} = \\ &= \begin{pmatrix} s\varepsilon af_0 + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)af_1(t)dt + s\varepsilon bf_0 + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)bf_1(t)dt \\ \alpha v(x)af_0 + (-s\varepsilon + u(x))af_1(x) + \alpha v(x)bf_0 + (-s\varepsilon + u(x))bf_1(x) \end{pmatrix} = \\ &= a \begin{pmatrix} s\varepsilon f_0 + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)f_1(t)dt \\ \alpha v(x)f_0 + (-s\varepsilon + u(x))f_1(x) \end{pmatrix} + \\ &+ b \begin{pmatrix} s\varepsilon g_0 + \alpha \int_{\mathbb{T}^d} v(t)g_1(t)dt \\ \alpha v(x)g_0 + (-s\varepsilon + u(x))g_1(x) \end{pmatrix} = \\ &= aA_2^{(s)}f + bA_2^{(s)}g. \end{aligned}$$

Demak, berilgan diskret parametrli ikkinchi tartibli operatorli matritsa  $A_2^{(s)}$  chiziqli operator ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б. И. Бахронов. У., Б. Б. Холмуродов. У. Изучение спектра одной 3x3-операторной матрицы с дискретным параметром //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 31-34.
2. Бахронов Б. И. У., Мансуров Т. З. У. Вычисление существенного спектра обобщенной модели Фридрихса в системе MAPLE //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 35-38.
3. Мансуров Т. З. У. Классификация видов самостоятельных работ учащихся на уроках математики по дидактическому признаку //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1078-1084.
4. Мансуров Т. З. У. Психолого-дидактические условия развития речемыслительной деятельности учащихся в процессе обучения математике //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1109-1115.



5. Мансуров Т. З. У. Самостоятельная работа на уроках математики это средство творческого развития учащихся //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1116-1121.
6. Мансуров, Т. З. у. (2022). Целесообразные уровни самостоятельности. Science and Education, 3(6), 1129–1135.
7. Ражабова Г. С. Об одном применении критерия Вейля //Молодой ученый. – 2017. – №. 25. – С. 12-13.
8. Ражабова Г. С. СОБСТВЕННЫЕ ФУНКЦИИ ИНТЕГРАЛЬНОГО ОПЕРАТОРА РАНГА 2 //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 10.
9. Ражабова Г. С. ОЦЕНКИ ДЛЯ ОПРЕДЕЛИТЕЛЯ ФРЕДГОЛЬМА СООТВЕТСТВУЮЩЕЙ СЕМЕЙСТВА МОДЕЛЕЙ ФРИДРИХСА //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 12.
10. Ражабова Г. С. АЛЬ–ХОРЕЗМИ-ВЕЛИКИЙ МАТЕМАТИК И ОСНОВАТЕЛЬ АЛГОРИТМА: Ражабова Гулчехра Саломовна, преподаватель кафедры «Точные науки» Педагогического института при Бухарском государственном университете //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 2. – С. 74-80.
11. Ismatovna, Asadova Yulduz. "THE METHODS OF TEACHING, LEARNING TO INDEPENDENT WORK: MOODLE EXPERIENCE AT BUKHARA STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE IN UZBEKISTAN, BUKHARA STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 1285-1291.
12. Ismatovna A. Y. METHODOLOGY OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS BASED ON ELECTRONIC PLATFORMS //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 119-125.
13. Ismatovna A. Y. Technology of organizing independent education of students in teaching" information technologies in education" on the base of distance learning platforms //Studies in Economics and Education in the Modern World. – 2022. – Т. 1. – №. 8.



## ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ ОБРАЗНОЙ СИСТЕМЫ РОМАНА А.С.ПУШКИНА «КАПИТАНСКАЯ ДОЧКА» В ИНОКУЛЬТУРНОЙ СФЕРЕ

Мохигул Жураева Бахтиёр кизи

магистранта Казанского (приволжского) федерального университета

**Аннотация:** В данной статье изучены особенности адаптации образной системы романа в инокультурной сфере на примере романа А.С.Пушкина "Капитанская дочка". Произведение является наиболее известным в русской литературе, которое с успехом переводится на различные языки мира и адаптируется в инокультурной сфере. Однако, при адаптации образной системы романа возникают определенные трудности, связанные с различиями в культурных традициях и представлениях о мире.

**Ключевые слова:** адаптация, сфера, образная система, стиль речи

**Annotation:** This article describes the features of adapting the image of the novel's system in a foreign cultural sphere on the territory of distribution of the novel by A.S. Pushkin "The Captain's Daughter". The work is the most popular in Russian literature, which is successfully translated into various languages of the world and adapted in a foreign cultural sphere. However, when adapting the novel's system, a guilty verdict is associated with differences in cultural traditions and ideas about prosecution.

**Keywords:** adaptation, sphere, figurative system, speech style

### Введение

Роман "Капитанская дочка" А.С. Пушкина – это одно из наиболее известных произведений русской литературы, которое с успехом переводится на различные языки мира и адаптируется в инокультурной сфере. Однако, при адаптации образной системы романа возникают определенные трудности, связанные с различиями в культурных традициях и представлениях о мире. Не только перевод названия, но и перевод текста романа на другие языки, представляет свои трудности в адаптации образной системы произведения.<sup>4</sup> Каждый язык имеет свои особенности и правила, которые не всегда совпадают с русским языком, на котором написан роман "Капитанская дочка". Именно

<sup>4</sup> . Альтман М. С. Читая Пушкина // Поэтика и стилистика русской литературы. Л.: Наука, 1971. С. 117-127.

поэтому необходимо тщательно подходить к переводу и не только переводить слова, но и передавать смысл, эмоции и нюансы оригинала.

#### Основная часть

Первая особенность адаптации образной системы романа "Капитанская дочка" связана с переводом названия произведения. Название "Капитанская дочка" в переводе на другие языки может звучать несколько иначе и не всегда передавать полное значение оригинального названия.<sup>5</sup> Например, в английском переводе романа название звучит как "The Captain's Daughter", что буквально переводится как "Дочь капитана", но не передает оттенков значения слова "капитанская". Для западной культуры, понятие "капитанская дочка" может нести другой смысл, чем для русской культуры.<sup>6</sup>

Вторая особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией имен героев. Некоторые имена героев могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах.<sup>7</sup> Например, имя главного героя – Петра Григорьевича Гринева – может быть трудно для запоминания и произношения в других языках, поэтому в некоторых переводах и адаптациях его имя может быть изменено. Имя героини Анастасии Ивановны в другой культуре может быть адаптировано как Anastasia Ivanova или Anna Ivanovna, чтобы соответствовать стандартам имен в этой культуре. Имя героя Ильи Бобырева также может быть изменено, например, как Ilya Bobrov, чтобы соответствовать стандартам произношения в другой культуре.<sup>8</sup>

Третья особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией описаний местности и природы. Некоторые описания местности и природы могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах, так как они могут содержать отсылки к русской культуре и истории. В романе "Капитанская дочка" очень много описаний природы, местности и окружения, которые создают атмосферу и влияют на настроение читателя.<sup>9</sup> Например, описание Белогорья в романе может быть трудно для понимания в других культурах, так как оно связано с русской историей и культурой. Важно

<sup>5</sup> . Пушкин в русской философской критике: Конец XIX - первая половина XX вв. Москва: Книга, 1990. 527 с.

<sup>6</sup> Цветков С. Э. Александр Суворов. 1730-1800. М.: ЗАО Центр-полиграф, 2005. 492 с.

<sup>7</sup> Фомичёв С. А. Проза Пушкина (начальный этап и перспективы эволюции) // Временник Пушкинской комиссии. Выпуск 21, Л.: Наука, 1987, С, 5-15,

<sup>8</sup> Фортунатова В. А. Пограничные и периферийные ситуации как экзистенциальная тенденция пушкинской прозы // Болдинские чтения. Нижний Новгород: НГГУ им. Н. И. Лобачевского, 2001, С, 25-37.

<sup>9</sup> Тынянов Ю. Н. Пушкин и его современники. М.: Наука, 1969. 424 с.



сохранить эту атмосферу и передать описание в оригинале, чтобы читатель мог оценить красоту русской природы и особенности местности.<sup>10</sup>

Четвертая особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией диалогов. Диалоги могут содержать сленг, диалектные выражения и обороты речи, которые могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах. Некоторые диалоги могут содержать игры слов или шутки, которые могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах. Речь каждого персонажа в романе имеет свой стиль, свои национальные черты и особенности.<sup>11</sup> Например, речь петербургского чинарей и казаков отличается друг от друга, и нужно это учитывать при переводе речи персонажей на другие языки. Кроме того, роман "Капитанская дочка" написан в стиле реализма, который характеризуется использованием аутентичной речи и диалогов персонажей, что усложняет процесс адаптации.

Пятая особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией символов и образов. Роман "Капитанская дочка" содержит в себе множество образов и идей, которые нужно передать на другие языки. Примерами могут являться, идея любви к России, идея гражданского долга и ответственности, идея правды и борьбы за справедливость. Важно передать эти идеи на другие языки, чтобы читатель испытал те же чувства и переживания, что и читатель оригинального текста. Также, образ Пугачева может быть трудно понять в других культурах, так как он связан с русской историей и культурой. Образ Марьи Ивановны, которая представляет идеал девушки в то время, мог бы быть адаптирован на другие языки, используя более общие понятия, такие как "идеальная женщина" или "модель женственности".<sup>12</sup> Образ падения старой России и одновременно возрождения новой России, который описывается в романе, может быть передан на другие языки путем использования аналогичных понятий, таких как "уход старых времен" и "приход новых времен". Образ опасного и нестабильного Воскресенья, который описывается в романе, может быть передан на другие языки путем использования понятий, связанных с религией, верой и надеждой. Образ мрачного и беспощадного крепостника Мирона (хозяина дома, где останавливаются герои романа) может быть передан на другие языки путем

<sup>10</sup> Фортунатова В. А. Пограничные и периферийные ситуации как экзистенциальная тенденция пушкинской прозы // Болдинские чтения. Нижний Новгород: НГГУ им. Н. И. Лобачевского, 2001, С, 25-37,

<sup>11</sup> Томашевский Б. В. Теория литературы. Поэтика. М.: Аспект Пресс, 2002. 334 с.

<sup>12</sup> Томашевский Б. В. Теория литературы. Поэтика. М.: Аспект Пресс, 2002. 334 с.

использования понятий, связанных с властью, жестокостью и беспощадностью.<sup>13</sup> Каждая нация живет в особенной окружающей среде, передача красок и красот тайги и бескрайних лесов России крайне трудно, тем кто не видел ничего, кроме песков пустыни. Поэтому передача образов крайне важна, так как способность переводчика в передачи образов влияет на уровень погружения глубины понимания романа читателем.

Шестая особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией стилей речи. Роман "Капитанская дочка" содержит различные стили речи, которые могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах. Например, стиль речи Пугачева может быть трудно передать в других культурах, так как он содержит элементы диалекта и сленга. Седьмая особенность адаптации образной системы романа связана с переводом и адаптацией моральных и этических аспектов. Роман "Капитанская дочка" содержит множество моральных и этических аспектов, которые могут быть трудны для перевода или адаптации в других культурах.<sup>14</sup> Например, моральный конфликт главного героя между верностью казачьей чести и любовью к Маше может быть трудно понять в других культурах, так как он связан с русской культурой и историей.<sup>15</sup>

#### Заключение

Таким образом, адаптация образной системы романа "Капитанская дочка" в инокультурной сфере является сложным процессом, связанным с различиями в культурных традициях и представлениях о мире. Однако, при правильном подходе и учете особенностей культуры, можно достичь успешной адаптации образной системы романа и сохранить его ценность в других культурах.

#### Список литературы:

1. Баевский В. С. К читателю русского перевода // Бэлнеп Р. Структура «Братьев Карамазовых». СПб.: Академический проект, 1997. С. 5-13.
2. Вольперт Л. И. Пушкин в роли Пушкина. Творческая игра по моделям французской литературы. Пушкин и Стендаль. М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. 328 с.
3. Земляная О. В. О «Капитанской дочке» и литературе как учебнике жизни // Литературное обозрение. 1999. JST» 1. С. 81-89.

<sup>13</sup> Фомичёв С. А. Грибоедов в Петербурге, Д.: Лениздат, 1982. 206 с.

<sup>14</sup> Томашевский Б. В. Теория литературы. Поэтика. М.: Аспект Пресс, 2002. 334 с.

<sup>15</sup> А. С. Пушкин в воспоминаниях современников: В 2-х т. М.; Художественная литература, 1974. Т. 1. 544 с



4. Карпов А. А. «Капитанская дочка» в контексте документально-художественной прозы А. С. Пушкина // *Стиль и время. Развитие реалистического повествования: Межвузовский сборник научных трудов*. Сыктывкар, 1985. С. 44-52.

5. Листов В. С. К истолкованию эпитафий «Капитанской дочки» // *Пушкин и мировая культура: Материалы шестой Международной конференции*. Крым, 27 мая - 1 июня 2002 г. Санкт-Петербург, Симферополь, 2003. С.

6. Муртазаева, Ф. Р., & Эргашева, Д. К. (2020). Образ женщины в русской литературе: от классицизма к постмодернизму. *Электронный инновационный вестник*, (5), 19-21.



## INGLIZ TILI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**O'tkirjon Islomov Axrorjon o'g'li**  
**Botirali Dehqonov Akbarovich**  
**Javohir Komilov Kozimjon o'g'li**  
**Uktamjon Ortiqov Xudoyberdiyevich**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali  
o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada chet tili darslarida kompyuter texnologiyalarini qo'llash zarurati va ahamiyati haqida so'z boradi. Ushbu maqolada chet tilini o'qitishning loyiha usulida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhokama qilinadi. Bundan tashqari, o'qitishning turli bosqichlariga mos keladigan turli ko'rsatmalar berilgan va tilni o'rgatish uchun interfaol doskalar, kompyuterlar va planshetlar bilan mashg'ulotlar va darslar misollari keltirilgan. Shubhasiz, sinfda ma'lumotlar innovatsiyasi va kompyuterdan foydalanishning keyingi rivojlanishi sinf muhitini tezda o'zgartiradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion, chet tilini o'rgatish, innovatsion texnologiyalar, interaktiv doska, planshet, I pad, kompyuter, o'quv dasturlari.

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotining foydalanilmagan sharoitlari oliy ta'lim tizimini malakali pedagoglar tayyorlashning to'liq foydalanilmagan darajasiga yetkazish kabi zamonaviy muammolarga duch kelmoqda, bu esa ularning yuksalishiga va so'nggi trendlarni hisobga olgan holda o'ziga xos tasavvurga ega shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilarning malakasini oshirishda, chet tillarida so'zlashishda shunday vazifalar qo'yiladi: ta'limda innovatsion materiallardan foydalanishni sozlash, ilg'or innovatsion strategiyalardan foydalanish, o'quvchilarni chet tillarida muloqot qilishga tayyorlash, har bir sust o'zlashtiruvchiga shaxsan yondashish, lug'at va ensiklopediyadan foydalanish, dialektni o'rganish qiziqishini yaratish. Chet tillarda gapirishga tayyorlashning eng asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining muloqot madaniyatini tartibga solish va oshirish, olis dialektni amaliy foydalanishga tayyorlashdir. Dunyo ma'lumotlar makonida eng muvaffaqiyatli yo'nalish o'quvchilarning ma'lumotlar madaniyatini, talab qiladi, chunki Internetda ma'lumotlarga ehtiyoj bor. Ma'lumotlar bazasi sifatida Internet



mijozlarga ma'lumotlar va aktivlarning assortimentini taklif qiladi. Ta'lim texnologiyalarining asosiy to'plami quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- elektron pochta (pochta);
- telekonferentsiyalar;
- videokonferentsiyalar;
- ma'lumotlar aktivlariga kirish:
- yordam kataloglari
- qidiruv tizimlari[1].

Ushbu vositalardan darsda samarali foydalanish mumkin. Ingliz shevasini o'rgatishda ixtirochilik yutuqlari muhim ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish orqali biz o'rganishni yanada hayotiy qilishimiz mumkin. Ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos usullarida qo'llaniladigan planshet, I Pad, kompyuter, dinamiklar, lingua telefon, quloq telefonlari kabi turli xil innovatsion innovatsiyalar mavjud.

Interfaol doskalar Hozirgi kunda maktablarda intuitiv ravishda interfaol doskalar keng tarqalgan. Demak, hozirda o'qituvchilarning aksariyati undan qanday foydalanishning sevimli usullariga ega. Men o'zim uchun qadrli bo'lgan bir nechta fikrlar va joylarni ko'rsatishga harakat qilaman. Birinchidan, agar biz bir vaqtning o'zida to'liq kursda biror narsa paydo bo'lishimiz kerak bo'lsa, aqlli doska idealizatsiya qilinadi. Biz hikoyalarni sozlay olamiz, kirish so'zlari yoki o'rgatuvchi filmlarni tomosha qilamiz yoki darslarni o'ynay olamiz [2]. OXFORD OWL - bu bolalarning uyda ham, maktabda ham o'qishini kuchaytirishga yordam beradigan mukofotga sazovor bo'lgan WEB sayti. Bu erda biz hikoyalar va ma'lumotlar kitoblarini hech qanday xarajatsiz ko'rib chiqamiz va bu kitoblar uchun aqlli tarzda tuzilgan, tushunishni tekshiradigan mashqlar mavjud.

Kompyuterlar. Kompyuterlardan amaliy darslar uchun foydalanish mumkin. Ulardan foydalanish orqali talaba o'rganish uchun qimmatli bo'lgan so'zli havolalar va kitoblarga ega bo'lishi mumkin. Paint rasmlarni chizish, rang berish va o'zgartirish uchun ishlatiladigan dastur bo'lishi mumkin. Siz oddiy rasmlar va ixtirochilik tashabbuslarini yaratish yoki boshqa rasmlarga kontent va rejalarni kiritish uchun kompyuterlashtirilgan eskiz paneli kabi Paintdan foydalanasiz. Agar bizda ingliz tilida dastur joriy qilingan bo'lsa, u ingliz tilida og'zaki ma'lumotdan foydalanmasligimiz mumkin. Bu ranglar, shakllar, tavsiflovchi so'zlar va hokazolarning cheksiz manbasidir va buyruqlar: kesish, chizish, bo'yash, yelimlash, bo'yash, to'ldirish va boshqa ko'plab. Yaqinda biz atrofimizdagi deyarli logotiplar haqida gaplashdik, ular bir nechta avtomobil logotiplari, tez ovqatlanish korxonolari,

tashuvchilar va futbol klublari butun dunyoga ma'lum. Bolalar chinakam harakatga qo'shildi, ular faqat ishladilar.

Dinamiklar, naushniklar va lingvofonlar. Dinamiklar ingliz tili darslarini tashkil etishda juda qimmatlidir. Ular bizga ingliz tili darslarida topshiriqlarni sozlashda yordam berishadi, chunki ular topshiriqlarni muhokama qilishda moslasha oladilar. Eshitish vositalari ham shu tarzda qo'llab-quvvatlanadi. Qanday bo'lmasin, uning bir afzalligi bor, bu kam o'quvchi yoki kam o'rganuvchi audiolarni alohida sozlashi mumkin, ammo ma'ruzachilar yordamida kam o'quvchilar birgalikda sozlashlari kerak. Lingvofonlar tarjima qilish uchun qimmatlidir. Ular tufayli kam o'rganuvchilar bir vaqtning o'zida yozma yoki muhokamani sharhlashlari mumkin [3].

Planshetlar yoki I PADlar cheksiz manbalari tufayli mening eng yaxshi tanlash apparatimdir. Planshet yordamida dars tashkil qilish, maktabdagi IT o'qituvchisiga ishora qilib, yaqinda barcha usullarni o'zimiz sinab ko'rishni yaxshi taklif qiladi. Agar bizga bir nechta rasm kerak bo'lsa, ularni gadjetimizda saqlab qo'yishimiz va ularni illyustratsiya uchun yuborishimiz mumkin. Talabalarimiz uchun Bluetooth Internetda, ayniqsa yoshlarga qarashga ruxsat berishdan ko'ra doimo xavfsizroqdir.

Simple mind. Android uchun bepul bu sizning android telefoningiz yoki planshetingizni kontseptuallashtiruvchi, fikrlash va fikrlarni tartibga soluvchi gadjetga aylantiradigan intellekt xaritalash qurilmasidir. Bepul moslashuv asosiy, ammo samarali Intellect Mapping-ning diqqatga sazovor joylari bilan birga keladi. Ushbu ilova CLIL darslarida juda qimmatlidir. U umumiy kurs, to'plamlar yoki to'plamlar bilan kontseptsiyalash, shuningdek, fikrlarni alohida tashkil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Foydalanish juda aniq va tabiiy, shuning uchun biz uni yoshroq va tajribali talabalarga taklif qilamiz [4]. To'g'ridan-to'g'ri intellektdan foydalanishning ikkita holati ko'rinadi, biri oddiyroq va biri biroz murakkabroq: FarFaria bolalar uchun minglab hikoyalar, ohanglar va qofiyalarni taklif etadi. Ishlatilmagan hikoyalar har hafta o'chiriladi. FarFaria talabalarga kitoblarga bo'lgan muhabbatni yaratishda yordam beradi va ularga o'qish imkoniyatini beradi. Ushbu ilovada, ammo hikoyalar kitobidan biz deyarli mavjudotlar, tabiat, koinot va hokazolar haqidagi ma'lumotlar kitoblarining bir qismini kashf eta olamiz. Bu kitoblar bizning CLIL birliklarimiz orasida bebahodir. Bolalar kitoblarni tinglashlari va mazmunini olishlari yoki o'zlari o'rganishlari mumkin. O'qituvchi ishlab chiqilayotgan kitobni tanlashi mumkin, chunki kerak bo'lganda uni nomi bo'yicha topish oson. Quyida ushbu ilovaning ba'zi ko'rinishlari mavjud: Manikin Buddies - Odatda qiziqarli va asosiy harakat ilovasi [5]. To'lovsiz sizga qo'g'irchoqlar yoki



multifilm qahramonlarining cheklangan to‘plami va bir nechta fon rasmlari beriladi. Siz o‘sha paytda sahnalarni ijro etasiz; ularni harakatlantiring, ovoz yozib oling. Tugallangan sahna o‘sha paytda qurilma xotirasiga yuborilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cuban L., 1986. Teachers and machines: The classroom use of technology since 1920. New York, NY: Teachers College Press.
2. Davies P. & Pears E., 2011. Success in English Teaching: A complete introduction to teaching English. Oxford University Press.
3. Galskova N.D. & Gez N.I., 2008. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika [Theory of Teaching Foreign Languages. Linguistics and methodology]. Moscow: Academia.
4. Kunanbayeva S.S., 2005. Modern foreign language education: methodology and theory. Almaty: Edelweiss
5. Prensky M., 2001. Digital natives, digital immigrants. On the Horizon. 9 (5). 1-6



## ПЕРЕДАЧА ВНУТРЕННЕЙ КРАСКИ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА РОССИИ В ПЕРЕВОДАХ РОМАНА Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО “ПРЕСТУПЛЕНИЕ И НАКАЗАНИЕ” НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

**Майсара Розикова Рустамовна**

Магистрант. Казанского (приволжского) федерального университета

**Аннотация:** В данной статье раскрыта передача внутренней краски национального колорита России в переводах романа Ф.М. Достоевского “Преступление и Наказание” на узбекский язык, Перевод на узбекский язык романа "Преступление и наказание" требует особого подхода, так как узбекская культура отличается от русской.

**Ключевые слова:** национальный колорит, процесс, традиции, стиль, язык, оригинальность.

**Annotation:** This article reveals the transfer of the inner color of the national color of Russia in the translations of the novel by F.M. Dostoevsky's “Crime and Punishment” into Uzbek, The translation of the novel “Crime and Punishment” into Uzbek requires a special approach, since Uzbek culture is different from Russian.

**Keywords:** national color, process, traditions, style, language, originality.

Введение.

Перевод литературных произведений является сложным процессом, который требует не только знания языков, но и понимания культурных особенностей народов, на которые переводится текст. В данной работе рассмотрим передачу внутренней краски национального колорита России в переводах на узбекский язык романа "Преступление и наказание" Федора Достоевского.

Передача национального колорита – это передача особенностей культуры, традиций, обычаев и менталитета народа, на котором написан текст. В романе "Преступление и наказание" Федора Достоевского автор описывает жизнь Петербурга в XIX веке, где главный герой Раскольников совершает преступление и потом страдает от чувства вины. В этом произведении присутствуют многие элементы русской культуры, такие как православие, бедность, социальная несправедливость, моральные дилеммы и т.д. Перевод на узбекский язык романа "Преступление и наказание" требует особого подхода, так как узбекская культура отличается от русской. В узбекском языке нет таких



слов, как "православие" или "бедность", поэтому переводчик должен использовать аналогии, которые наиболее точно передадут смысл и настроение оригинального текста.

Важным элементом передачи внутренней краски национального колорита России в переводах на узбекский язык является сохранение стиля и языка оригинала. Переводчик должен уметь передать не только смысл, но и стиль написания, чтобы сохранить атмосферу оригинального текста. Например, если в оригинале используется множественное число, то и в переводе должно использоваться множественное число, даже если в узбекском языке это не является обязательным. Также важно учитывать культурные различия между Россией и Узбекистаном. Некоторые элементы русской культуры могут быть непонятны для узбекского читателя, поэтому переводчик должен объяснить эти элементы в комментариях или примечаниях.

Узбекская культура и история имеют свои особенности, которые могут отличаться от русской. Например, узбекистанские люди могут иметь другие ценности и традиции, которые могут не совпадать с тем, что описывается в романе. Это может затруднить понимание читателем узбекского языка. Русский язык имеет богатую поэтическую традицию, которая может быть трудна для понимания для узбекского читателя. Русские образы и метафоры могут потерять свой смысл при переводе на узбекский язык. Это может привести к тому, что читатель не сможет полностью оценить красоту языка и стиля оригинального произведения. "Преступление и наказание" содержит много сложных предложений и длинных описаний, которые могут быть трудны для понимания на узбекском языке. Узбекский язык может иметь другую структуру предложений, что может затруднить передачу смысла. Культурный контекст, связанный с русской историей и традициями, может быть непонятен для узбекского читателя. Некоторые слова и выражения могут иметь глубокий культурный смысл, который может быть утерян в переводе. Однако, переводчик может использовать различные методы, чтобы передать смысл и атмосферу романа. Например, использование сносок и комментариев может помочь узбекскому читателю понять культурный контекст произведения. Также переводчик может использовать более простой язык и структуру предложений, чтобы упростить понимание романа. Важно сохранить дух и стиль оригинального произведения, но также учитывать особенности узбекской культуры и языка.



Кроме того, важно учитывать различия в менталитете народов. Узбекистан является страной с богатой историей, которая оказала влияние на менталитет его жителей. Например, узбеки склонны к коллективизму, что отражается в их культуре и обычаях. Переводчик должен учитывать эти особенности и использовать соответствующие выражения и образы, чтобы передать смысл оригинального текста. Также, для успешного перевода текстов на узбекский язык необходимо иметь творческий подход. Переводчик должен быть способен передать не только смысл, но и эмоции и настроение оригинального текста. Он должен понимать, какие слова и выражения могут вызвать определенные эмоции у читателя, и использовать их в своих переводах. Только тогда читатель сможет полностью погрузиться в мир произведения и насладиться его красотой. Например, Передача религии и верований в переводе на узбекский язык романа "Преступление и наказание" может столкнуться с рядом проблем, связанных с культурными различиями и особенностями языка. Религия играет важную роль в романе, поэтому ее правильное передача на узбекский язык имеет большое значение для понимания смысла произведения.

Узбекская культура и ислам имеют свои особенности, которые могут отличаться от русской. Религиозные понятия и символы могут иметь другой смысл в узбекской культуре, что может затруднить понимание читателем узбекского языка. Кроме того, в романе присутствует католичество, которое не является основной религией в Узбекистане, что может вызвать недопонимание. Русский язык имеет богатую религиозную лексику, которая может быть трудна для понимания для узбекского читателя. Некоторые термины и понятия, связанные с религией, могут иметь разные значения в разных культурах. Это может привести к неправильному пониманию смысла произведения. Также, роман "Преступление и наказание" содержит много философских и религиозных мыслей, которые могут быть трудны для понимания на узбекском языке. Узбекский язык может иметь другую структуру предложений, что может затруднить передачу смысла. Из-за этих причин, культурный контекст, связанный с русской историей и традициями, может быть непонятен для узбекского читателя. Некоторые слова и выражения могут иметь глубокий культурный смысл, который может быть утерян в переводе. Передача религии и верований в переводе на узбекский язык романа "Преступление и наказание" может быть сложной задачей, связанной с культурными различиями и особенностями языка. Однако, переводчик может использовать различные

методы, чтобы передать смысл и атмосферу произведения, сохраняя дух и стиль оригинала.

#### Заключение

Перевод письменных работ на узбекский язык - задача, требующая от переводчика мастерства и ответственности, поскольку для этого требуется всестороннее понимание узбекского диалекта, традиций и обычаев наряду с творческим подходом и разнообразным опытом работы с текстом. Переводчик, обладающий необходимыми качествами, сможет передать задуманное сообщение и ощущения от подлинного содержания с предельной точностью и достоверностью

#### Список литературы:

1. Бахтин М. М. Проблемы творчества поэтики Достоевского. — Киев: Next, 1994
2. Белов С. В. Роман Ф. М. Достоевского «Преступление и наказание» / Под редакцией Д. С. Лихачёва. — Л.: Просвещение. Ленинградское отделение, 1979.
3. О фразеологизмах в переводе романа "Преступление и наказание". Ж. Узбек тили ва адабиёти, Ташкент, 1987, № I.
4. Воссоздание индивидуальных портретов в переводе (на материале узбекского перевода романа Ф.М.Достоевского) "Преступление и наказание". Материалы республиканской научно-теоретической конференции молодых ученых в ИШ1 АН УзССР. Ташкент, ФАН, 1989.
5. Некоторые принципы воссоздания внутреннего монолога в романе Ф.М.Достоевского "Преступление и наказание". Сб. "Таржима ысалалари", Ташкент-Самарканд, 1991.
6. Муртазаева, Ф. Р., & Эргашева, Д. К. (2020). Образ женщины в русской литературе: от классицизма к постмодернизму. Электронный инновационный вестник, (5), 19-21.

## ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISH DARAJASINI GIGIENIK BAHOLASH

**Farrux Boqijonov Azizjon o‘g‘li**

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti magistranti

Ilmiy rahbar: PhD R.U.Axmadaliyev

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada muallif tomonidan, atmosfera havosi va uni ifloslantiruvchi manbalar, xususan Farg‘ona shahri hududi havosi ifloslanish darajasi, havo tarkibidagi chang, uglerod oksidi, oltingugurt oksidi, azot oksidi kabi zararli gazlarning inson salomatligiga ta’siri va ushbu zararli omillar tarqalishini oldini olish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

**Kalit so‘zlar:** atmosfera havosi, zararli gazlar, chang, kasallanish, bronxial astma, avtotransport, uglerod oksidi, oltingugurt oksidi, azot oksidi.

**Annotation:** This article, the author presents recommendations on the impact on human health of harmful gases such as atmospheric air and sources of its pollutants, in particular the level of air pollution in the territory of the city of Fergana, dust in the air, carbon monoxide, sulfur oxide, nitric oxide and the Prevention of the spread of these harmful factors.

**Keywords:** atmospheric air, harmful gases, dust, malaise, bronchial asthma, motor transport, carbon monoxide, sulfur oxide, nitrous oxide.

Respublikaning samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining muhim asosi sifatida aholi salomatligi uchun maqbul sharoitlarni yaratish va ekologik muvozanatni saqlashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan chuqur islohotlar olib borilmoqda [2,4,5].

Bugungi kundagi eng muxim masalalardan biri atmosfera havosini toza saqlashdir. Olimlarning taqiqotlariga ko‘ra Yer kurrasida kishilarning xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq holda atmosferaga har yili 500 mln tonna atrofida oltingugurt gazi, sulfid oksidi, azot oksidi va boshqa ifloslantiruvchi moddalar chiqarilmoqda [1,3].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ma’lumotlarga ko‘ra bizning davrimizga kelib, atmosfera havosidagi changlar miqdori o‘tgan XX-asrga nisbatan 20%ga oshgan. Odamlar sixat salomatligiga xavf tug‘diruvchi zaxarli moddalarning aksariyati, shu jumladan uglerod oksidining 65-97%i, uglevodlarning 56-75 %i. va azotning 46-63%i mamlakat aholisining yarmidan

ko'p qismi yashaydigan shaharlardagi mavjud avtotransport vositalaridan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalar xisobiga xosil bo'ladi [6,7,8,9,10].

Farg'ona viloyat ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish boshqarmasi, viloyat IIB, viloyat SEO va JS boshqarmasining Farg'ona shahar bo'limi xodimlari bilan birgalikda o'tkazilgan 2020-2022 yillar davomidagi tekshiruvlari asosida aniqlangan ma'lumotlar asosida ilmiy izlanishlar oli borildi.

#### NATIJALAR.

Hamkorlikda olib borilgan tadbirda avtotransporti bor tashkilot va korxonalarda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, Farg'onaazot zavodi, Farg'ona shaharga kirish qismidagi 1 postda 245 ta xolatda - 30 tasi yuqori, Farg'ona shahridan Farg'ona tumaniga kirish qismidagi 5 postda 283 ta - 31 tasi yuqori, Quvasoy shaharga kirish qismida 189 ta - 21 ta yuqori, Al-Farg'oniy ko'chasida - 241 ta - 21 tasi yuqori, Qori Niyoziy ko'chasida -89 ta - 15 tasi yuqori, A.Navoiy ko'chasida 301 ta - 31 tasi yuqori, Quvasoy ko'chasida 276 ta - 25 tasi yuqori bo'lib, jami 1714 ta avtotransportlarning 174 tasi me'yodan yuqori chiqqan va bu 10,1 foizni tashkil etgan.

Avtotransportlardan chiqayotgan zararli CO<sub>2</sub> is gazlari va tutun miqdorlari Avtotest gazoanalizator yordamida o'lchash ishlari olib borilgan. Tekshirishlar natijasida 84 ta avtotransport joyida qaytadan sozlandi.

Farg'ona shahri shartli ravishda ikki hududga ajratilsa, toza hudud Oxunboboev mavzesini va Qirguli hududini ifloslangan hudud deb olish mumkin. Atrof muxitni ifloslanishini asosan sanoat rivojlangan hudud, ya'ni Qirguli mavzesi tashkil qilmoqda. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatyaptiki 2020-2023 yillar davomida shahar aholisining kasallanish holat bevosita atmosfera havosinining ifloslanishiga bog'liq bo'lib, bolalar, o'smirlar va kattalar orasida 1-o'rinda nafas a'zolari kasalliklari - 14-16%, 2-o'ringa kattalar orasida ovqat xazm qilish sistemasi kasalliklari - 7-10%, 3-o'rinda allergik kasalliklar, endokrin, buyrak, jinsiy a'zo kasalliklari - 5-7% 4 - o'rinda esa gipertoniya va yurak ishemik kasalliklari - 5-6% va kamqonlik egallaydi.

Ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqqan xolda aholining kasallanish holatni o'rganilib, kuzatuv mintaqasidagi atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarga quyidagilarni kiritish mumkin. Shahar hududida jami 815 ta korxonalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, shundan 15 tasi yirik korxonalar, 10 ta xalq istemol mollari ishlab chiqaruvchi korxonalar va 738 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qildi.

#### MUHOKAMA.

O'tgan 2020-yildagi atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1201 ta olingan havo namunalari chang, oltingugurt IV-oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislota kabi zararli gazlarga tekshirildi.

Ushbu olingan 1201 ta havo namunasini 824 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 244 tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 30 foizni tashkil etdi. Farg'ona azot zavodidan 241 ta olingan sinamalarni 25 tasida, FNQIZ - 185 tadan 21 tasida, yoqilg'i quyish shaxobchalaridan 165 – 16 tasida, choraxalaroda 406 tadan 194 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalarida 66 tadan 28 tasida me'yordan yuqoriligi aniqlandi. 2021 yil atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1281ta olingan havo namunalari quyidagi ko'rsatgichlarga tekshirildi: CHang, oltingugurt IV oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislota. Ushbu olingan 1281ta havo namunasini 890 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 282tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 31 foizni tashkil etdi. Ularning barchasi changni tashkil etdi. Farg'ona azotdan 254 ta olingan sinamalarni- 25 tasida, FNQIZ-185 tadan 14 tasida, yoqilg'i quyish shaxobchalaridan 160-13 tasida, choraxalaroda 428 tadan 210 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalaida 96 tadan 20 tasida me'yordan yuqori chiqqan. 2022 yil atmosfera havosini ifloslanish darajasini baxolash maqsadida 1286 ta olingan havo namunalari quyidagi ko'rsatgichlarga tekshirildi: CHang, oltingugurt IV oksidi, uglerod oksidi, azot oksidi, sulfat kislota. Ushbu olingan 1286 ta havo namunasini 892 tasi changga tekshirilgan bo'lib, shundan 261 tasi gigienik talabga javob bermadi, bu 29 foizni tashkil etdi. Ularning barchasi changni tashkil etdi. Farg'ona azotdan 254ta olingan sinamalarni- 23 tasida, FNQIZ-185 tadan 16 tasida, yoqilg'i quyish shahobchalaridan 160-12 tasida, chorahalaroda 428 tadan 192 tasida, avtomobil yuvish shaxobchalaida 96 tadan 18 tasida me'yordan yuqori chiqqanligi qayd etildi.

#### XULOSA.

Farg'ona shahar aholisining salomatlik holatga atmosferani ta'sirini o'rganish maqsadida 2020-2022 yillarda birlamchi kasallanish bo'yicha aholining salomatlik holati reprovpektiv tahlili qilinganda ko'z va ko'z kossasi kasalliklari, nafas olish a'zolari kasalliklari ortganligi aniqlandi. Aholining umumiy kasallanish holatni tarqalishi tahlil qilinganda ifloslangan ya'ni yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lgan Qirguli hududida nafas olish tizimi kasalliklari, qon aylanish tizimi kasalliklari, teri va teri osti klechatkasi kasalliklari, ruhiy buzilishlar, parazitlar kasalliklar yillar davomida ko'payganligi aniqlandi. Olingan tahlil natijalari shuni ko'rsatki 2021 yilda atmosfera havosini ifloslanishi boshqa yillarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Barcha yillarda chang asosiy ifloslantiruvchi manba bo'lib qolaverdi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdimo‘minovna T. S. ATROF MUHITNING IFLOSLANISHI VA EKOLOGIK MUOMMOLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 1. – С. 102-104.
2. Bekturganovna A. N. ATMOSFERANING IFLOSLANISHI VA UNING ATROF MUHITGA TASIRI //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 580-582.
3. Ismoilovich A. Y. et al. ATMOSFERA XAVOSINI IFLOSLANISHINI OLDINI OLISHDA TARIXIY VA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 167-179.
4. Mirzakarim o‘g‘li M. M., Xasanboyevna R. D. ATROF-MUHIT IFLOSLANISHI SHAROITIDA ORGANIZMDA YUZ BERADIGAN O‘ZGARISHLAR //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 794-803.
5. Muhayyo N., Muqaddas N., Shoiraxon N. ATMOSFERA HAVOSINING INSON SALOMATLIGIGA TA‘SIRI //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 298-302.
6. Yusupaliev R., Kuchkarov A., Iskandarova R. AZOT OKSIDLARINING ATROF-MUHITGA ZARARLARI //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 127-130.
7. Faxriddinova B. M. TUPROQ IFLOSLANISHI UNING SALBIY OQIBATLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
8. Abdulxakim o‘g‘ F. N. et al. ATMOSFERA HAVOSINING GAZ TARKIBINI O‘ZGARISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 504-508.
9. Tadjibayeva L. SHAHAR HUDUDLARIDA ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA SALBIY TA‘SIRI //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 67-70.

## DUNYODA URBANIZATSIYA JARAYONINING IJTIMOIIY – DEMOGRAFIK JIHATLARI

**Olimjon Rayimzoda Odiljon o‘g‘li**

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 2-kurs magistri

Ilmiy rahbar: PhD. R.U.Axmadaliyev

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mualliflar tomonidan, urbanizatsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, aholining demografik ko‘rsatkichlari, shahar va qishloq aholisining o‘shish sur‘atlari hamda ularning urbanizatsiya jarayonini vujudga kelishidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** urbanizatsiya, demografiya, statistika, shahar, qishloq, gigiena, o‘shish sur‘ati.

**Annotation:** In this article, the authors reflect on the specifics of the urbanization process, demographic indicators of the population, the growth rates of urban and rural populations and their importance in the emergence of the urbanization process.

**Keywords:** urbanization, demography, statistics, urban, rural, hygiene, growth rate.

Urbanizatsiya jarayonining o‘shish sur‘atlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda urbanizatsiyalashganlik doirasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining ulushi 75%-90% ga, ya‘ni yuqori darajaga yetganligitufayli urbanizatsiyalashish sur‘atlari ancha pasaygan, ayrim hollarda yirik shaharlardagi aholi soni kamaymoqda. Shunga qaramasdan, urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda taraqqiy etishda davom etib, yangi-yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiyalashish jarayoni shahar aholisining nisbatan past ulushga egaligi tufayli har tomonlama va hamma yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Lekin mazkur mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoning sifat ko‘rsatkichlariga mutanosib emas.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Jahonda XX-asr boshida (aholisining soni 100 mingdan ortiq) 360 ta katta shaharlar mavjud bo‘lib, shularga jami aholining atigi 5% i to‘g‘ri kelgan, bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi. 2000 yilda esa

3,5 mingdan o‘tib ketdi. Ularga tegishli tarzda jami aholining 1/3 va 2/5 qismi tashkil etadi.


Katta shaharlar ichida aholisining soni 1 mingdan ortiq bo‘lgan yirik va juda yirik bo‘lgan shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. Shunday shaharlarning soni XX-asr boshida 10 ta bo‘lgan, 80-yillarning boshida 200 dan, 2000 yilda esa 400 dan oshib ketdi. Mazkur shaharlarichida supershaharlar (aholisining soni 5 mln. dan ziyod) miqdori 90-yillarda 30 tani, 2000 yilda esa 60 tani tashkil etdi. Hozirgi kunda ushbu shaharlarda salkam 0,5 mlrd. kishi yoki yer shari aholisining 80% dan ortiq qismi istiqomat qilmoqda. Uchinchi jihat - shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog‘langan.

#### NATIJALAR.

Shaharlar tarixin ijtimoiy va iqtisodiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan va rivojlanib bormoqda. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq ma'muriy boshqarish, mudofaa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan. Qadimgi tarixdan bizga ma'lumki eng qadimgi davrlarda qadimgi shaharlar daryo bo‘ylarida paydo bo‘lgan.

Yer yuzida Fiva, Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Baqtariya, kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lgan. Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg‘in XIX-asrda, dastlab Yevropada, keyingi paytlarda shimol Amerikada boshladi. Bu hodisaga g‘arb davlatlarida ro‘y bergan sanoat inqilobi sabab bo‘ldi.

Oxirgi 200-yil davomida dunyo aholisining o‘sishi shahar turmush tarzini yani urbanizatsiya darajasi, shaharlashuv jarayoni qizg‘in davom etmoqda. 1800-yilda insoniyatning taxminan 2-3%i sharlarda yashagan. 1900-yilga kelib bu raqam 14% gacha shaharda joylashgan edi. 1950 yilga kelib jahon urbanizatsiya jarayoni 29-30% ni tashkil eti. 1999-yilda bu ko‘rsatkich 45%, 2000-2001 yilda bu ko‘rsatkich-47% ga yetdi. 2010 yilga kelib shahar aholisining ulushi 50% tashkil etilgan bo‘lsa, 2022-yil ma'lumoti buyicha 60% shaharlarda yashaydi.



Dunyodagi eng yirik shaharlar ro'yxati va ularning 2030-yilgacha aholi soni prognozi

Urbanizatsiya jarayoni 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Shaklanayotgan urbanizatsiya 50 % dan past bo'lib, Misr, Bangladesh, Moldova, yangi shahar aholisining ulushi o'sib boradi, ayrim qishloqlar shahar aholisining toifasida o'tib boradi. (Burundi 13 %, Niger 16 %, Malavi 17 % shular jumlasidandir).

2. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi "Millioner" shaharlarning yuqori darajada o'sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. 50-75 % Janubiy Afrika respublikasi, Peru, Xitoy xalq respublikasi va boshqa davlatlar.

3. Yetuk urbanizatsiya. Shahar aholisining ulushi 75 % dan ziyod.

AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Belgiya, Isroil va boshqa Yevropa Ittifoqidagi shaharlar, asosiy xizmat ko'rsatish, bank moliya sektori, boshqaruv sohalari markazlariga aylangan, aholi yashaydigan joylarda tobora markazdan uzoqlashib boraveradi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy geografik jarayonlar suburbanizatsiya deb ataladi.

#### MUHOKAMA.

Urbanizatsiya ob'yektiv, dunyoviy jarayon bo'lib, tez fursatlar bilan rivojlanib bormoqda, ammo bu rivojlanishning ya'ni urbanizatsiyaning o'ziga xos tomonlari bo'lib ijtimoiy, iqtisodiy sferalarga, tabiiy resurslarga o'zlarining salbiy ta'sirlarini

ko'rsatmoqda, shunga qaramay odamlarning shaharlarni egallashi tobora ortmoqda. Bugungi kunda aholi soni 20 mln.dan oshgan yirik shaharlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Katta shaharlarda atmosfera havosi turli zaharli gazlar bilan ifloslangan bo'ladi, atmosferaga chiqariladigan zaharli gazlarning me'yoridan oshib ketganiligi ko'pchilikka ma'lum. Aholi soni 20 mln.dan oshgan shaharlarga Shanxay, Tokiyo, Qohira kabi shaharlar kiradi va bu shaharlarda atmosfera havosi eng ifloslangan holatdaligi kuzatilmoqda.

#### XULOSA.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o'sishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o'sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo'shib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog'liqdir. Shaharlarning o'sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo'lib, katta shaharlarga qo'shib boradi va shaharlar aglomeratsiyasi hosil bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni avj olgan, alohida aglomeratsiyalarning qo'shib ketishi natijasida megapolislar vujudga kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холмирзаев Н. УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/2. – С. 193-198.
2. Хуснутдинова С. Р., Розанова Л. Н., Хуснутдинов Р. Р. Туризм+ урбанизация= сверхтуризм?! //Современные проблемы сервиса и туризма. – 2019. – Т. 13. – №. 4. – С. 86-97.
3. Хуэй С., Емегенова Э. А. Концепция " один пояс-один путь" и исследование стратегии развития новой урбанизации //Эпоха науки. – 2017. – №. 12. – С. 126-135.
4. Цзе Ч. Анализ факторов, усиливающих развитие урбанизации в Китае //Социология. – 2020. – №. 3. – С. 170-181.
5. Цзе Ч. Проблемы и перспективы урбанизации в современном информационном мире //Социология. – 2020. – №. 2. – С. 334-337.
6. Цыплакова Е. Г., Янкевич Ю. Г., Янкевич Н. К. АДАПТИВНОЕ ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗДАНИЙ КАК СТРАТЕГИЯ



УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕВЕРНЫХ ГОРОДОВ //Иновации и инвестиции. – 2023. – №. 3. – С. 361-365.

7. Чупин А. Л., Чупина Ж. С. УРБАНИЗАЦИЯ КАК ВЫЗОВ УСТОЙЧИВОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ РАСТУЩЕЙ АВТОМОБИЛИЗАЦИИ //Вестник Московского финансово-юридического университета. – 2022. – №. 1. – С. 214-231.

8. Шевченко О. М., Штофер Л. Л. Тренды цивилизационного развития: урбанизация/деурбанизация (экологический аспект) //Гуманитарий Юга России. – 2021. – Т. 12. – №. 5. – С. 84-98.

9. Шляпников В. Н. и др. Особенности волевой регуляции у тувинцев в условиях урбанизации общества //Экспериментальная психология. – 2023. – Т. 16. – №. 1. – С. 152-166.

10. Шубенков М. В., Шубенкова М. Ю. Современная урбанизация: перспективы развития //Биосферная совместимость: человек, регион, технологии. – 2021. – №. 2. – С. 3-15.

11. Gollin D., Jedwab R., Vollrath D. Urbanization with and without industrialization //Journal of Economic Growth. – 2016. – Т. 21. – С. 35-70.

12. Guan X. et al. Assessment on the urbanization strategy in China: Achievements, challenges and reflections //Habitat International. – 2018. – Т. 71. – С. 97-109.

13. Guan X. et al. Assessment on the urbanization strategy in China: Achievements, challenges and reflections //Habitat International. – 2018. – Т. 71. – С. 97-109.

14. Jedwab R., Vollrath D. Urbanization without growth in historical perspective //Explorations in Economic History. – 2015. – Т. 58. – С. 1-21.

15. Katz C. Splanetary urbanization //International Journal of Urban and Regional Research. – 2021. – Т. 45. – №. 4. – С. 597-611.

## ERKIN VOHIDOV IJODIDA O'XSHATISHLARNING O'ZIGA XOS TALQINI

**Shahlo Ibrohimova**

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'rlarida qo'llangan o'xshatishlarning lingvopoetik tahlili va ularning o'ziga xos xususiyati hamda ijodkorning so'z qo'llash mahorati va uslubi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, badiiy tasvir vositalari, erkin o'xshatish, turg'un oxshatish, sintaktik qurilish, lingvopoetika.

Tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham o'xshatishlar eng keng qo'llaniluvchi badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. O'xshatishlar bevosita ijodkorning ijodiy g'oyasi va tafakkuri mahsulidir. O'xshatishlarni qo'llash mahorati ijodkorning so'z qo'llash va uni bir marjonga terish qobiliyatini ham ko'rsatadi. O'xshatishlar o'z nomidan ko'rinib turibdiki, bir tushuncha orqali ikkinchi bir narsaning yo shakl yoki ma'no nuqtayi nazaridan bog'liqlik kasb etishidan yuzaga chiquvchi tasvir vositasidir. Bunday tasviriy vositalar 2 turli bo'ladi:

Erkin

Turg'un

Quyida Erkin Vohidov ijodida uchragan ayrim o'xshatishlarning uslubiy va lingvopoetik tahliliga to'xtalib o'tamiz.

E.Vohidov asarlarida leksik o'xshatish vositalari ham faol qo'llangan. Bu birliklar badiiy matn tasviriyliigi va ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qilgan. Shoir she'rlarida ko'pincha bo'lib, *o'xshash*, *naqd*, *go'yo* kabi birliklar o'xshatish vositasi sifatida qo'llangan. Masalan:

“Erim”. Bu so'z xotin ko'ksiga

Olovli o'q bo'lib sanchildi. (“Tushlik tanaffus”)

Bu misrada so'zning ayolga ta'siri uning ko'ksiga olovli o'qning sanchilishi bilan tenglashtirilgan. Bu kabi o'tkir o'xshatish qahramon holatini yanada aniqroq his qilishga ko'maklashadi.

Yoki o'xshash so'zi orqali: *Hali sizning hovlingiz katta bo'ldimi? To'rtta odam kirsam, beshinchisi laylakka o'xshab bir oyog'ini ko'tarib turishi kerak.* (“Oltin devor”)

Bu o‘rinda hovlining kichkinaligini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida, o‘xshatish keltirilib, bu bilan shoir “Hali sizning hovlingiz katta bo‘ldimi?” ritorik so‘roq gapining ishorasi asosida yuzaga chiquvchi “Sizning hovlingiz kichik” yashirin axborotini to‘ldirish, shu axborotni bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida keltirilgan.

Ayrim hollarda muayyan predmetlar bir-biriga zidlanadi. Ayni paytda zidlanish asosida o‘xshatish hosil qilinadi. Masalan:

Qalpoq emas – ertak u,

Qalpoq emas – tilla toj! (“Matmusaning qalpog‘i”)

Ushbu she‘riy parchada oddiy qalpoq tilla tojga qarshilantirilgan, shuningdek, o‘xshatish asosida qalpoqning qahramon uchun tilla toj kabi qadrli, obro‘li ekanligi ta‘kidlangan. Shoirning ayni bir o‘rinda ham zidlash, ham o‘xshatishni hosil qila olishi tahsinga loyiq. Bu nafaqat she‘rning badiiyiligini oshirishga, balki konnotativ ma‘noning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ba‘zan shoir o‘xshatishga asoslangan misralarni ketma-ket qo‘llaydi. Shoirning mahorati shundaki, o‘xshatish har bir misrada yangilanib boradi, o‘xshatishni shakllantiruvchi grammatik ko‘rsatkichlar takrorlanmaydi, aksincha, uning barcha vositalaridan mohirona foydalanishga harakat qiladi.

E.Vohidovning “Qorxat” nomli she‘ri ham ana shunday nozik va chiroyli o‘xshatishlar asosiga qurilgan. Masalan:

She‘r yozar chog‘idagidek yoningiz,

Bunda dasturxoningiz – **dostoningiz**.

O‘zingiz aylang tovus **yanglig‘** xirom,

She‘riyat**day** totli bo‘lsin bo‘lsin har taom.

Ol yanog‘ingiz **kabi** olma, anor,

Ko‘zlaringiz**dek** charos boqsin xumor.

Eslatib **ham** pistalar xandoningiz,

Yuzingiz**dek** kulsa shirmoy noningiz.

Bo‘lsa bodomlar qabog‘ingiz **kabi**,

Ham murabbolar dudog‘ingiz **kabi**.

Lag‘mon eshib tola-tola sochingiz,

**Misli** yoyib tashlaganday sochingiz.

Sochdagi bargak**dayin** ko‘k bodiring,

Ham xino **yanglig‘** patinjon oldiring.

Tarvuzu qovunni serob qiling,

### **Xuddi oshiqlarni tilganday tiling. (“Qorxat”)**

Ushbu she'riy parchada o'xshatishning eng nozik ifodalari ko'zga tashlanadi. Bu holat she'rning badiiyligini, uning ta'sirchanligini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Shoir qalbi **go'yo anor,**

She'ri uning sharbati. (“Shoir qalbi”)

Yuqoridagi misralarda ijodkor tomonidan erkin o'xshatish qo'llangan bo'lib, shoirning ko'ngli anorga qiyoslanmoqda. Bilamizki, anor donachalarga bo'lingan meva va uning sharbati ko'p dardlarga da'vo hisoblanadi. Shoir ham o'zini shu anor donasiga o'xshatmoqda. Bu o'rinda ijodkorning tashqi ta'sirlar natijasida ezilishi va anorning suvi ezilishi borasida ichki jihatdan o'xshatishni asos qilib olgan.

Choshgoh quyoshida yonar ufqlar,

**Borliq o't ichida lovullar go'yo.**

Ushbu misralarda tabiat tasviri shoir nigohi bilan baholangan. Bu o'rinda ijodkorning nozik qalb kechinmalarini va ruhiy holatini ko'rishimiz mumkin.

Vazmin endi o'z asriga xos,

**Yuksak edi bamisli hayol.**

**U yurakning o'zidek hassos,**

**Tabiatdek edi barkamol. (“Yo'qolgan she'r”)**

Yuqoridagi misralardan Erkin Vohidovning ijodiy mahoratini aniqroq ko'rishimiz mumkin. Har bir misrada o'xshatish vositasini qo'llagan. Bu orqali ijodiy niyatini o'quvchiga aniqroq ko'rsatib berishni maqsad qilgan. Yo'qolgan she'r va uning salmog'i va ma'nosi ochib berilgan. U she'r shunday aziz ediki, go'yo tabiat kabi barkamol, hayoldek yuksak. Bundayin tasviriy vositalarga boy she'r ijodkorning ijodiy mahoratini ko'rsata olgan.

Qor yog'ar- osmonda oqqushlar uchar,

Qor yog'ar- osmondan oq ukpar tushar.

Yuqoridagi ikki misraning o'zidayoq shoir o'z mahoratini zo'r namoyon qila olgan. Qorning yog'ishi go'yoki oq qush-u, oq ukparga qiyoslanmoqda. Lekin bunday o'xshatish vositasini alliteratsiya orqali misralarga tera olgani ijodkorning yana bir nozik qirrasini ko'rsatib ham bergan. o va q tovushlari takrori nafaqat she'rning jarangdorligini oshirgan, balki o'xshatish vositasining aniqroq ko'rinishiga ham turtki bo'lgan. Bunday tashqari, shoir o'xshatishning shunday nozik jihatini ilg'aydiki, bunda oq rang orqali tinglovchi ko'z oldida turli assotsiatsiyalarni ham

keltiradi. 6 tagina soʻzdan foydalanib yozilganiga qaramasdan, ijodkor keng maʼnoni ifodalay olgan ushbu sheʼr shoir ijodining shohbaytlaridan biridir.

Hosilimiz **boʻldi oltin** vaznida,

**Boʻldi har misqoli** gavhar bilan teng. (“Tabrik” )

Ushbu sheʼrda ijodkor dehqonning mehnati samarasi boʻlgan paxta haqida soʻz yuritar ekan, uni gavharga ( yaʼni gavhar noyob va qimmatli) qiyoslash orqali uning qiymatini koʻrsatib bera olgan. Shuningdek, ushbu misradagi oʻxshatish vositasiga eʼtibor beradigan boʻlsak, shoir anʼanaviy vositalarni qoʻllamaydi( -dek, kabi, singari, yangligʻ ) “boʻldi” soʻzi orqali oʻxshatish vositasini ifodalagan va bu ham ijodkorning yuksak mahoratidan darak beradi.

Qara, bahor sep yoyibdi olamga

Qara, gʻuncha gul shohini egibdi

Yasanishni unutmay deb bayramga

Balki, u ham roʻmolchasin tugibdi

Yuqoridag misralardan koʻrishimiz mumkinki, Erkin Vohidov xalq urf-odatlaridan va anʼanalaridan yaxshigina xabardor. Bu esa esa ijodkorning xalq tiliga yaqin va tushunarli ijod qilishi bilan bogʻliqdir. Barchamizga maʼlumki, xalqimizda biror muhim ishning esdan chiqmasligi uchun roʻmolchani uchini bogʻlab qoʻyish odati mavjud. Bunday holatni tabiat tasviri bilan bogʻlay olgan shoir olamni nozik hislari bilan idrok qila olganini koʻrishimiz mumkin. Shoir quyidagi misralarda maʼnoviy oʻxshatishni qoʻllagan, yaʼni misralardagi umumiy maʼno boshqa bir odatga (roʻmolcha bogʻlashga) qiyoslanyapti.

Ayrim hollarda muayyan predmetlar bir-biriga zidlanadi. Ayni paytda zidlanish asosida oʻxshatish hosil qilinadi. Masalan:

**Qalpoq emas- ertak u,**

**Qalpoq emas- tilla toj!**

Ushbu sheʼriy parchada oddiy qalpoq tilla tojga qarshilantirilgan, shuningdek, oʻxshatish asosida qalpoqning qahramon uchun tilla toj kabi qadrli, obroʻli ekanligi taʼkidlangan. Shoirning ayni bir oʻrinda ham zidlash, ham oʻxshatishni hosil qila olishi tahsinga loyiq. Bu nafaqat sheʼrning badiiyligini oshirishga, balki konotativ maʼnoning yuzaga chiqishiga sabab boʻlgan.

Erkin Vohidov sheʼrlarida bunday nozik oʻxshatishlar yuzlab kuzatiladi. Birinchi misradagi oʻxshatish keying misralarda ham mazmunan davom etadi, goʻyo narsalar misralar davomida jonlanib boradi. Masalan:

Daryo sokin, **uxlar toʻlqinlar,**

Uxlar, qoʻyib qirgʻoqlarga bosh.



Shoir birinchi misrada to‘lqinlarning tungi sokinlik holatini uyquga o‘xshatsa, ikkinchi misradagi qirg‘oqni yostiq hisoblab, to‘lqinlarning boshini shu yostiqqa bosh qo‘yishini tasvirlaydi. Bu tasvir orqali shoir “ uyquga ketgan har bir mavjudod yostiqqa bosh qo‘yadi” presuppozitsiyasini o‘quvchiga eslatib o‘tadi. Bunday chiroyli o‘xshatishlar orqali shoir kitobxon qalbida ajib hissiyotlarni uyg‘otadi.

**Foydalanilan adabiyotlar:**

1. Қўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.
2. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода-таъсир воситалари. Самарқанд, 1994.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
4. Vohidov E. She‘r dunyosi. Toshkent, 2001



## PR OLAMIDAGI MUOMMOLAR

### Sevinch Berdiyeva Aliddin qizi

Buxoro davlat universiteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yoʻnalishi talabasi

[sberdiyeva56@gmail.com](mailto:sberdiyeva56@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqola davomida Oʻzbekistonning viloyat, shahar va tuman hokimliklaridagi PR va matbuot xizmatidagi qator muommolar va ularning sabablari koʻzdan kechiriladi. Hamda xalqaro doiradagi vaziyat bilan solishtirgan holda talqin qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** PR, matbuot xizmati, muommolar, Oʻzbekiston, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, samarali faoliyat, ochiqlik siyosatini taʼminlash.

**Annotation:** During the article, a number of treats and their causes in the PR and press service in the regional municipalities of Uzbekistan are examined. It is also interpreted in comparison with the situation in the international circle.

**Keywords:** PR, Press Service, contacts, Uzbekistan, county, city and district municipalities, effective activities, ensuring a policy of hunger.

PR bu ochiqlik siyosatini shakllantirishning eng ommalashgan usullaridan biri, yaʼni xalq, auditoriya bilan muloqot orqali isteʼmolchi fikrlarini oʻrganish va muommolarni bartaraf qilib, mavjud talablar orqali yangi ishlanmalarni yaratish samarali faoliyat poydevori. Bunday uslub xalqchil Oʻzbekistonda ham keng ravishda foydalanib kelinmoqda. 2006-yilda Vazirlar Mahkamasining “Davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqlarni rivojlantirish chora tadbirlari togʻrisida”gi qonuni bilan yoʻlga qoʻyilib, bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.06.2019-yildagi, 07/19/4366/3343-son qarori asosida tashkil qilingan. Faoliyati yoʻlga qoʻyilganiga 15-yil boʻlyotgan yoʻnalishda qator islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, qator muommolar ham koʻzga tashlanmoqda.

Bugungi kunda davlat tashkilot muassasalarining barchasida matbuot xizmati faoliyatini yoʻlga qoʻyish boʻyicha qaror va buyruqlar chiqqan boʻlsa-da, lekin hali hanuzga qadar qoniqarli faoliyat yoʻlga qoʻyilmagan. Yuqoridagi Prezident qaroriga muvofiq barcha matbuot xizmati xodimlari shu sohada tahsil olgan va OAKA attestatsiyadan oʻtgan kadrlar boʻlishi lozim ammo hamma mutaxassislar ham bu soha vakillari emas. Bu esa natijada tashkilot bilan ommani muloqotini taʼminlay olmaslik, tashkilot haqida toʻgʻri maʼlumot bera olmaslik oqibatlariga olib keladi.

Eng asosiysi, bunday kadrlar ma'lumot uzatish tartibini bilmagani bois OAVdagi tanqidiy materiallarga munosabat bildira olmaydi, yoki vaziyatga ochiqlik kiritish maqsadida kelgan jurnalist bilan ishlamay, undan ma'lumot yashirib xalqning davlat tashkilotiga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqaradi. Bu muommoning eng asosiy sabablaridan biri bo'lsa, boshqa sabablar ham "Inson qadri" shiori ostida siyosat yurituvchi davlatimiz faoliyatini o'zining tashkiloti misolida yoritib, ko'rsatib bera olmaydi. Bu faoliyatni yo'lga qo'yish borasidagi internet sahifalarida to'plangan ommaning ishonchini va davlat tashkiloti haqida ma'lumotini oshirish maqsadida platformalar orqali jonli efirlar tashkil qilish vazifasi ham axborot xizmati tomonidan ko'ngildagidek yo'lga qo'yila olgani yo'q. 2020-yildagi o'tkazilgan nazorat kuzatuv natijalariga binoan matbuot xizmatlarning 44 tasida jonli efir berilmagan. Bu aslida oqibatgina, xolos bu bo'limda kerakli kadrlar ishlamasligidan va shuning ortidan ulgura olmaslik oqibatidan kelib chiqadi. Bunday kamchiliklar faqatgina jonli efirlar qilish vazifasida emas boshqa vazifalarda ham uchrab turadi. Masalan, xorijiy OAV ga material berish, rasmiy munosabat berish, muommolarni yorita olmaslik yoki yoritilgan material qoniqarli bo'lmaslik holatlari shular jumlasidandir. 3187-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan mezonlar asosida respublika darajasidagi 146ta tashkilot va idoralar hamda 206ta tuman va shahar hokimliklari matbuot kotiblarining 2020-yilning II yarim yilligidagi faoliyati samaradorligini aniqlash jarayonida 50 nafar axborot xizmati rahbari muayyan voqeliklarga nisbatan rasmiy bayonot bermagan bo'lsa, 8 nafari faoliyati doirasidagi sohaga oid muammolarni yoritmagan, 23 nafar axborot xizmati rahbari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar haqidagi axborotni e'lon qilish holati (tezkorligi) talab darajasida emasligi aniqlangan.<sup>16</sup> Bu ham matbuot xizmati orqali tashkilotning nufuzini tushuruvchi ko'rsatkichlardan biridir.

Axborot xizmati jarayonlarida eng katta muommolardan biri bu PR mutaxassisining OAV bilan aloqalaridir. Samarali aloqa ommalashga axborot demakdir. Ma'lumot ilinjida kelgan OAV xodimini kuttirmasdan, tezlik asosida ma'lumot taqdim etish auditorining katta ishonchi va e'tiborini olib keladi. Bugungi kunda aynan shu turdagi sabablar ortidan ham jamoatchilikning matbuot xizmati va jurnalistlarga ham e'tibori so'nib blogerlar faoliyatiga talab ortmoqda. Bu esa o'z navbatida qator muommolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday muommo nima sababdan kelib chiqadi? Eng avvlo xodimning malakasizligi yoki ma'lumotsizligi oqibatida yuzga keladi. Rossiya Federatsiyasning Omask shahri matbuot xizmati faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, mazkur faoliyatda OAV bilan ishlash uchun alohida

<sup>16</sup> <https://kun.uz/66950586> Вазирликлар ва ҳокимликларнинг энг яхши матбуот котиблари аниқланди

xodim biriktirilgan hisoblanadi.<sup>17</sup> Shu bilan birga, matbuot xizmati rahbari ham qandaydir muommo yuzaga kelganda o‘zi jurnalistlarga ro‘baro kelib, ma’lumot beradi. O‘zbekistondagi matbuot xizmatlarida esa odatda 1 yoki 2 kishi ajratilgan bo‘lib, ular ko‘pincha bu ish bilan shug‘ullana olmaydi.

Shuningdek, matbuot xizmatida biz yana ko‘p ro‘baro keladigan muommolar biri bu PR mutassisining boshqa bo‘limlar bilan aloqalari. Mamlakat miqyosida ko‘plab tashkilotlar matbuot xizmatiga faqatgina fotosuratchi sifatida qaraydi hamda matbuot xizmati ma’lumot so‘ragan kezda chala yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etadi. Inqirozli vaziyatda esa bu tashkilot yoki matbuot xizmati uchun ko‘p ishlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, samarali matbuot xizmatini yo‘lga qo‘yish avvalo kerakli kadrlarni tayinlashni talab qiladi. Bu xuddi Omask shahri matbuot xizmati misolidagidek, malakali jurnalist yoki PR mutaxassisi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Hamda tashkilotning negizida matbuot xizmati bo‘limining tasir doirasini oshirish lozim bu bo‘lim vazifalariga nisbatan mas‘uliyat bilash ishlash uchun muhimdir. Keyin PR mutaxassislarning OAV vakillari bilan aloqalari uchun milliy nazariya tadbiq qilish yoki tavsiya qilish ham muommoming yechimi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tashkilotning OAV uchun ochiq bo‘lishi ham tashkilot faoliyatini samarali tashkil qilishga yordam beradigan jihatlardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://aoka.uz/>
2. <https://kun.uz/66950586> Вазирликлар ва ҳокимликларнинг энг яхши матбуот котиблари аниқланди
3. Новосибирская Школа Гражданского Общества Николаев А.Ю., Гераськин С.В., Борисов И.В., Кретинин А.Е.Сысоев,К.А.:Работа, пресс-секретаря и пресс-службы администрации субъекта Российской Федерации, Новосибирск 1997
4. “Ma’rifat” gazetasi 2023-yil 26-may kungi 43-soni

<sup>17</sup> Новосибирская Школа Гражданского Общества Николаев А.Ю., Гераськин С.В., Борисов И.В., Кретинин А.Е.Сысоев,К.А.:Работа, пресс-секретаря и пресс-службы администрации субъекта Российской Федерации, Новосибирск 1997



## MAGISTRLARDA ILMIY TADQIQOT KOMPETENTLIGINING RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

**Ma'luda Xusanova Nurdinovna**

Namangan davlat universiteti doktoranti,

[maludaxusanova82@gmail.com](mailto:maludaxusanova82@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim muassasalari magistrLARining ilmiy - tadqiqot kompetentligi, ahamiyati va na'zariy manbalar tahlil qilingan. Shakllantirilgan xulosalar asosida oliy ta'lim magistrLARda ilmiy-tadqiqot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** ilm, ilmiy tadqiqot kompetentlik, tadqiqotchilik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kreativlik, tadqiqotchilik faoliyati.

**Annotation:** The article analyzes the scientific and research competence, significance and theoretical resources of masters of higher education institutions. On the basis of the formed conclusions, proposals and recommendations on the development of research competence of higher education masters were developed.

**Keywords:** science, scientific research competence, research competence, professional competence, creativity, research activity.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'ri va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini

oldindan tashxislash va uning natijalarini bashorat qilish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Ilm (arab.) — o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmuidir.

Ilmiy tadqiqot — bu insonning o‘zi va atrofdagi o‘zgarishlarni anglab yetishga doimiy ravishda tayyor turishga yangicha tafakkur qilish asosida o‘z qobig‘idan chiqqan olishdir. Shuningdek, inson ijod qilmasa, yangi g‘oyalarni yaratmasa jamiyat taraqqiy qilmagan bo‘lardi. Inson va jamiyat rivojida ijodning ahamiyati oshib, murakkablashib borgan. Inson ijodiga bo‘lgan talab, ehtiyoj ham turli davrlarda har hil bo‘lgan.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob‘yektivlik, ishonchlik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki kiyim — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo‘llaniladi

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish shuni ko‘rsatdiki, kasbiy kompetentlik va uni rivojlantirish muammosi ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Aksariyat pedagogik-psixologik adabiyotlarda kompetentlik, kompetentsiya, kasbiy kompetentlik shaxsning ijtimoiy kasbiy yo‘nalganligi asosida shakllanadigan, kasbiy funksional vazifalarning samarali yechimini ta‘minlashga xizmat qiluvchi kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi sifatida izohlanadi. Oliy ta‘lim tizimi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi esa uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ajralmas majmua: o‘quv, uslubiy, ilmiy, tarbiyaviy, kafedra, fakul'tet, oliy ta‘lim muassasani boshqarishda bevosita ishtirok etishdir.

Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishi ta‘minlovchi sifatida qaraladi. Shuningdek: Kompetentsiya – bu shaxsning emas, balki joyning o‘ziga xos hususiyati insonning ijtimoiy rolining parametridir. O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi – bu o‘qituvchi va olim sifatida kasbiy



faoliyatining asosini tashkil etadigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar tizimidir. O'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali aniqlanishi mumkin. O'qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi vazifasini bajaradi.

Kasbiy kompetentlik – bu pedagogik faoliyatdagi real vaziyatlarda uchraydigan kasbiy pedagogik muammo va vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydigan metodik usullar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogik diagnostika (so'rov, individual va guruhli intervyu) texnologiyalari psixologik va pedagogik korrektsiya, didaktik vositalarni qo'llay olish va doimiy takomillashtirib borish; ta'lim oluvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarga doir kreativ g'oyalar, ilg'or xorijiy tajribalar, yangi adabiyot, shuningdek boshqa ma'lumotlarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llashdir. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish esa ijodiy shaxsning rivojlanishi, pedagogik yangiliklarga retseptivlikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik sharoitga moslashish qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchining malakasi va professionalligini, ya'ni uning kasbiy mahoratini tinimsiz oshirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish, jamiyatda ijtimoiy moslashishga qodir, o'z ishini to'g'ri tashkil etishi, o'zini-o'zi tarbiyalash va o'zini takomillashtirishga qodir bo'lgan ko'p qirrali shaxsni tayyorlash hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. – 2004. – №2.
2. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. – 2003. – №10.
3. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. – 2003. – № 2.
5. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарика”, 2004.



6. Muslimov N.A., Усмонбоева М., Мирсолиева М. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т: 2016

## SPORT TURIZMI ORQALI O‘SMIRLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MA‘NAVIY SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATALARI VA JIHATLARI

**Zarifa Abdunazorova Abdurasul qizi**

Chirchiq Davlat pedagogika instituti, jismoniy tarbiya yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sport turizmi orqali o‘smirlarning jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatalari va jihatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Turizm, sayyohlik agentliklari, marshrut, avtoturizm, turistik klublar.

**Аннотация:** В данной статье написано особенности и аспекты развития физической и психической подготовленности подростков средствами спортивного туризма.

**Ключевые слова:** Туризм, турагентства, маршрут, автотуризм, туристские клубы.

**Annotation:** This article describes the features and aspects of the development of physical and mental fitness of adolescents by means of sports tourism.

**Keywords:** Tourism, travel agencies, route, autotourism, tourist clubs.

Turizm maktabdan tashqari sportning muhim tarkibiy qismidir. Yildan-yilga O‘zbekistonda turizm rivojlanib bormoqda

Turizm - sog‘lom turmush tarzining murakkab shaklidir.

Turizm do‘stlikka, mehnatsevarlikka, intizomga, tashabbuskorlikka o‘rgatadi, shuningdek, o‘zaro yordam hissini tarbiyalaydi, dunyoqarashni kengaytiradi, ma‘naviyatini boyitadi.

Hayot - tabiat go‘zalligini bilishning ajoyib vositasi. Toza havo, quyosh va tartibli jismoniy faoliyat, turli xil sayohat va yurish tajribalari markaziy asab tizimining faoliyatini normallashtirishga hissa qo‘shadi, ish qobiliyatini tiklaydi.

Turistik ekskursiyalar va sayohatlar shaxsiy tashabbusni rivojlantiradi va o‘zaro manfaat, qat‘iyat, iroda va yuksak intizomga o‘rgatadi. Piyoda va chang‘ida uchish, bolalar bilan sayohat qilish yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi, organizmning kasalliklarga chidamliligini oshiradi, shuningdek mushaklar kuchayadi.



Turizm va o'lkashunoslik yordamida jismoniy rivojlantirish, takomillashtirish va atrof-muhitni bilish orqali shaxsning qadriyatlarga munosabati hamda ma'naviy fazilatlarini shakllanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi turizmni shaxsni ma'naviy tarbiyalovchi vositalardan biri deb hisoblaydi.

Umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya dasturida sport turizmi berilmagan. Biroq, sport turizmini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tashkil etish yaxshi natija berdi. O'smir yoshdagi bolalar va qizlar sport turizmiga katta qiziqish bildirdi. Tadqiqot natijasida shuni aniqladikki, bu yoshlar chiniqishi hamda jismoniy tayyorgarligi hamda ma'naviy dunyoqarashi boshqa bolalarga nisbatan ancha sezilarli darajada bo'ldi.

Maktab turizmi o'lkashunoslik bilan chambarchas bog'liq. Sport turizmi va o'lkashunoslik o'tgan asrning 80-yillarida juda ko'p tarqalgan. Turli musobaqalar sobiq ittifoq tuzimi davrida o'tkazilgan. Bizdan katta avlod vakillari bu musobaqalarda qatnashgan. Tog' turizmi, sport turizmi keng yoyilgan.

Maktab turizmining pedagogik salohiyati uning butun majmuasi bilan shakllari va turlari juda katta.

Biroq, foydali pedagogik koeffitsient turizmning rivojlanishi va tashkil etilishi unga qanday yondashuv tanlanganiga bog'liq. Bundan tashqari sport yo'riqchisi yoki jismoniy tarbiya o'qituvchisining mahorati, tajribasi, kasbiy tayyorgarligi hamda o'quvchilarning ko'nikmalari, qobiliyatlari, jismoniy tayyorgarligiga bog'liq.

Hozirgi kunda sport murabbiysi va jismoniy tarbiya o'qituvchisi sinfdan tashqari to'garak yoki klub sifatida tashkil etib, reja va dasturini ishlab chiqishi mumkin.

Buning uchun o'quv vaqti, o'quv soatlari ajratilishi kerak. Ekskursiyalar va sayohatlar uchun o'quv yili davomida bir necha to'liq maktab kunlari ajratilishini maktab rahbariyatiga taklif etib kiritishi kerak.

Bolalar turizm maktablari, turizm klublari tashkil etish yoshlarimizni sport bilan shug'ullanish bilan birga o'lkamiz tarixini, geografik tuzilishini kengroq o'rganish imkonini beradi. Klub a'zolari o'lkashunoslik muzeylari tashkil etishi yanada yaxshi bo'ladi.

Biroq, turizm va o'lkashunoslik faoliyati sport turizmidan farq qiladi. Sayyohlik va o'lkashunoslik faoliyati, asosiy e'tibor tabiatni o'rganish, ona yurt tarixini o'rganish bo'lsa, sport turizmida - maktab o'quvchilarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Turizm ko'p vaqt talab qiladigan, lekin juda qiziqarli va foydali yo'l bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdir. Ushbu turdagi faoliyat katta

hajmga ega hisoblanadi. U yoshlarni chidamli bo'lishga o'rgatadi, maishiy tartibsizlikni, turli qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatadi,

umumiy ish uchun javobgarlikni, oilani hurmat qilishni o'rgatadi, tabiat va madaniyat yodgorliklari, ulardan oqilona foydalanish, vaqt, kuch, mulk; o'z-o'z-o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Yoshlar tanasiga har tomonlama ta'sir qilib, tananing funksional faoliyatini to'g'ri rivojlantirish hamda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonining bu tabiiyligi ifodalangan piyoda sayohatlar:

- jismoniy tarbiya - bolalar xalta bilan harakat qilishadi;

to'siqlarni yengib o'tishga intiladi;

- estetik tarbiya - bolalar atrofdagi go'zallikdan zavqlanadilar, tabiatni tomosha qiladilar.

-mehnat tarbiyasi – palatka o'rnatishda, tayyorlashda namoyon bo'ladi,

olovda ovqat, ekskursiyada turli ishlarni bajarishda;

axloqiy tarbiya - intizom, mas'uliyat, klub ishtirokchilarining o'zaro yordami va munosabatlari;

- vatanparvarlik tarbiyasi - tabiat boyliklari bilan tanishtirish, o'z mamlakatining tarixi va madaniy yodgorliklari bilan tanishish.

Turistning maxsus va har tomonlama tayyorgarligi- chidamlilik, qiyin va tezda yengib o'tish, tabiiy to'siqlarga to'la uzoq marshrutlarga chidamlilik va yelkadagi yuklarni ko'tarishga moslashish.

Turizmni qiyinlashtiradigan bir qancha omillar mavjud:

Masofa, Yuklar og'irligi. Tabiiy qiyinchiliklar: shamol, chang, yo'lning yomonligi, o'rmon, tog', suv va hokazo to'siqlar mavjud.

Tananing barcha a'zolari va tizimlarining rivojlanish darajasi funksional holatni belgilaydi.

Turistning quyidagi ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega:

- turli jismoniy mashqlarni bajarishda kuchlarni taqsimlash qobiliyati mashqlar va texnikalar;

- turli jismoniy va texnik mashqlarni bajarish qobiliyati; texnik jihatdan ko'p mushaklar, kuchlanishsiz texnikalar.

Bundan kelib chiqadiki, texnik tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Turistlarda jismoniy omillardan kuch, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik rivojlangan bo'lishi kerak.

Yosh sayyohlar halol, tengdoshlar jamoasi oldida mas'uliyatli, jasur va do'stona bo'lishni o'rganadilar.

Turistik sayohatlarda, ayniqsa, ko'p kunlik sayohatlarda quyidagi fazilatlar shakllanadi:

- muloqot qobiliyatlari(yaxshi niyat, hamda rdlik, o'zaro yordam, his-tuyg'ular va injiqliklarni jilovlash, kognitiv faollik, qiziqish)

- mustaqillik, tashabbuskorlik;

- ekologik tafakkur;

- tabiat va uni muhofaza qilish haqidagi bilimlarga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi;

- ijtimoiy jamoa bilan uyg'un yashash ko'nikmalari;

atrof-muhit va tabiatni bilish;

doimiy o'zgaruvchan jamiyat sharoitlariga tez moslashish shakllanadi va rivojlanadi.

Shunday qilib, turizm maktabdan tashqari mashg'ulotlarning muhim tarkibiy qismidir.

Sport tadbirlari, yurish, sayohat, turistik musobaqalar, shuningdek, o'lkashunoslik va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari oddiy va samarali ta'limga ega turizmning asosiy vositalaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy konferensiya materiallari 11-qism. "SPORT TURIZMI TURLARI VA ULARNI TASHKIL ETILISHI" maqola Axmadjanova Muxtasarxon Anvar qizi, Irisboyev Shohruhbek Nurmuhammad o'g'li

2. Григорьев, Д.В. Внеурочная деятельность школьников. Методический конструктор: пособие для учителя. / Д.В. Григорьев, П.В. Степанов. – М.: Просвещение, 2010. – 134 с.

3. Баева, Т.Е. Применение статистических методов в педагогическом исследовании/Т.Е. Баева, С.Н. Бекасова, В.А. Чистяков. - СПб.: НИИХ, 2011. - 81 с.

4. Верхошанский, Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте.-М. : Физкультура и спорт,1988.-171с.

5. Верхошанский, Ю. В. Основы специальной физической подготовки спортсменов / Ю.В. Верхошанский. - М.: Физкультура и спорт, 2005. - 330с.



6. Виленский, М.Я. Физическое воспитание школьников: вопросы перестройки / М.Я. Виленский, Е.М. Литвинов // Физическая культура в школе. – 1990. – №12.– С.2-7.

7. Константинов, Ю.С. Теория и практика спортивнооздоровительного туризма: учеб. пособие / Ю.С. Константинов; Российская международная академия туризма; Федеральный центр детско-юношеского туризма и краеведения. - М.: Советский спорт, 2009. – 392 с.



## MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARIDA INTELLEKT SALOHIYATINI OSHIRISHDA KOMPYUTER O'YINLARINING AHAMIYATI

**Gulbahor Yuldasheva**

Farg'ona davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

**Shahnoza Yo'ldasheva Husanovna**

Qo'qon Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi(MT) yo'nalishi 1-boshqich magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar faoliyatida kompyuterli ta'limiy, rivojlantiruvchi va ta'limiy-rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish orqali intellekt salohiyatini oshirish imkoniyatlari bayon etilgan bo'lib, kompyuterni ta'lim berish vositasi sifatida multimediali kompyuter o'yinlaridan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatini berishligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ta'lim samaradorligi, multimedia texnologiyasi, o'yin, kompyuter, taqdimot, uslub.

Hozirgi davrda multimedia texnologiyasi tez rivojlanib borayotgan zamonaviy axborot texnologiyasining asosiy yo'nalishi sifatida ko'p sohalarda, jumladan, ta'lim sohasida samarali foydalanib kelinmoqda.

Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasida turli texnologiyalarni, jumladan, multimedia texnologiyasini tatbiq etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi turi bo'libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog'ona hamdir. Bola faoliyatining 80 foizini turli o'yinlar, jumladan, didaktik o'yinlar tashkil etadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Multimedia texnologiyasidan ta'lim sohasida foydalanishning dolzarbligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmonida “Tayanch oliy ta'lim muassasalarida yetakchi professor-o'qituvchilari ma'ruzalarining audiovizual ta'lim kontentini hamda multimedia ta'lim mahsulotlarini (audiokitoblar, 3D, VR va boshqalar) ishlab chiqaruvchi **maxsus media markazlarni** tashkil etish” vazifalari belgilangan [1].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

**Respublikamizda kompyuterli didaktik o‘yinlar** Xalq Ta’limi Vazirligi Respublika ta’lim markazida tayyorlanib kelingan. Masalan, markazda “Xotira”, “Pazl”, “So‘z yasash” o‘yinlari tayyorlangan.

BIARR guruhi “Rang va shakllarni o‘rganamiz” dasturini yaratganlar va dastur kompyuterli 8 xil turli mashq va o‘yinlarni o‘z ichiga oladi .

Bular: “Shakllarni o‘rganamiz”, “Bu qanday shakl?”, “Ranglarni o‘rganamiz”, “She’rlar”, “Boshqotirma”, “O‘ylab toping”, “Bugungi dastur” kabilardan iborat.

R.R. Boqiev, R.Y. Mexmonov va D.K. Xusniddinovlar quyidagi kompyuterli didaktiko‘yinlardan “Uchburchak shaklini top”, “Rangni top”, “Eng kattasini tanla”, “Sonini top”, “To‘g‘risini tanla”, “Alifboni o‘rganamiz”, “Archa yonsin chiroqlaring”, “Labirint”, “Farqini top”, “Yil faslini top” kabi o‘yinlarni kompyuterda yaratish va ulardan foydalanish uslubini berganlar. Shuningdek 2-5 yoshli maktabgacha ta’lim muassasalari bolalari uchun 10 ta turli xil o‘yinlarning nomlarini va mazmunini keltirganlar.

O‘rgatuvchi multimediali dasturiy vositalardan biri “ALJABR” hisoblanadi. Bu dastur 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ulardan bemalol bolalar bog‘chasida, maktablarning boshlang‘ich sinflarida, gimnaziyalarda foydalanish mumkin. Unda sodda va ravon tilda bolalarni 0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlar bilan tanishtirish, ularni taqqoslash, bir xonali sonlar ustida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarini soddalashtirilgan holda tanishtirishga mo‘ljallangan [9].

Kompyuterli didaktik o‘yinlar tayyorlash va ulardan foydalanish bo‘yicha Qarshi davlat universitetida samarali ishlar olib borilmoqda. Muallif N.X. Begmatova tomonidan ko‘plab kompyuterli didaktik o‘yinlar yaratilgan va ulardan foydalanilmoqda [4].

Bular: “Shakllarni ustma-ust qo‘yish”, “Bo‘sh katakni to‘ldir”, “Bosh harflarni rasmlar ustida joylashtir”, “Kompyuterli svetofofor labirint”, “Qushchani qafasga joyla”. “Ekologik o‘yin”, “So‘z tuzish”, “Minora yasash”, “Ikki xalqa”, “Jadvalni to‘ldir”, “Fasllar o‘yini” va hokazolardir.

Kompyuterli ta’limiy o‘yinlar asosan bolalarga ta’lim berish, o‘rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, ular o‘rganiladigan materialga qiziqish uyg‘otish va uni bilishga intilish, havas qilish vazifalarini ham bajaradi.

Kompyuterli ta'limiy o'yinlarga quyidagilar kiradi: "Uy yasash", "Sonini top", "O'rta bo'yilisini aniqla", "So'z yasash", "Alifboni o'rganamiz", "Katakni to'ldir", "Ekologik o'yin" va hokazolar.

Shulardan "Uy yasash" o'yinining ta'limiy jihatlariga e'tibor qaratamiz. "Uy yasash" o'yini yordamida tarbiyalanuvchilar geometrik figuralar mavzusi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Uchburchak, to'rtburchak va kvadrat shakllarini o'rganish. Dastlab mashg'ulotning texnologik xaritasi tuziladi.

MTT tarbiyalanuvchilariga geometrik shakllar bo'yicha tasavvurlarni shakllantirish uchun Power Point dasturi asosida animatsiyali, ranglari jilolangan va ovoz berilgan taqdimot tayyorlangan bo'lib, u kompyuter xotirasiga kiritiladi. Tarbiyachi dastlab ushbu taqdimotdan foydalanib, mashg'ulotni boshlaydi. Taqdimot uch qismdan iborat: uchburchak, to'rtburchak va kvadrat.

**Kompyuterli rivojlantiruvchi o'yinlar** bola tafakkurini rivojlantirish, aqliy faoliyatini oshirish, diqqatini barqarorlashtirish, idrokini faollashtirish va hokazolarga qaratilgan. Kompyuterli rivojlantiruvchi o'yinlar mantiqiy o'yinlar sirasiga kiradi.

Kompyuterli rivojlantiruvchi o'yinlar "Qushchani qafasga joyla", "Labirint", "Tetris", "Dendi", "Pazl", "Farqini top" kabilardir.

Kompyuterli rivojlantiruvchi o'yinga "Gul, baliq, qushchani joylashtir" o'yinlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu o'yin bo'yicha xam multimediali slayd tayyorlanib, kompyuter xotirasiga yuklangan bo'ladi.

#### XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

-maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'limning birinchi turi bo'lgani uchun uni uzluksiz ta'lim tizimida boshqa ta'lim turlari bilan uzviylikini ta'minlash;

-maktabgacha ta'limga tegishli o'ziga xos va mos multimedia texnologiyasidan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va ularning metodikasini shakllantirish;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyaga asoslangan kompyuter o'yinlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga multimediyaga asoslangan kompyuter o'yinlarini yaratish va tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga kompyuter savodi bilan borishlarini ta'minlash davr talabi hisoblanadi. Didaktik o'yinlar (shu jumladan kompyuter o'yinlari ham) ta'limiy va tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turi bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar informatikadan tushuncha va qoidalarni muvaffaqiyat bilan

o'zlashtiradilar va ular asosida masala va mashqlarni yechishga, mantiqiy fikrlashga o'rganadilar. Ushbu vositalardan foydalanish ularning intellektini rivojlantirishi shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori. - <https://lex.uz/docs/5032128>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)
4. Бегматова Н.Х. Методика проведения компьютерных образовательных игр в дошкольных учреждениях // Технологии и методики в образовании. – Воронеж, 2011. - № 3. – С. 3-6.
5. Boqiev R. R., R.Mehmonov, D. Husniddinova. Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. - 112 b.
6. G Yuldasheva, H Mamatova.(2023), Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida kompyuter o'yinlarining tutgan o'rni. Iqro jurnali 2(1), 89-91.
7. Yuldasheva, G. (2022). D. Begmatova Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. *International Academic Research Journal*, 57-61.
8. Г. И. Йулдашева, Г. Йулдашева. (2019), Замонавий таълим тизимида ахборот –коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ахамияти. Актуальные вызовы современной науки.Сборник научных трудов.Украина. Выпуск4(36), 74-78.
9. А.М.Мирзакулов, Г.И. Йулдашева.(2018), Бошлангич синфларда информатика фанини ўқитишда компьютер дидактик ўйинларидан фойдаланиш методлари. ФарДУ "Бошлангич таълим мазмунини модернизациялаш: муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Республика илмий – амалий анжуман материаллари. 3-5 б.
10. Komilova Z. Kh., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new



information technologies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 167-170.

11. Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(13), 69-74.

12. Mamirovich, I. S. (2022). Finlyandiya Va O'zbekistonda Ta'lim Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszłości*, 29, 347-350.

13. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M. (2023). Zamonaviy informatikani o'qitish: maqsad, mazmun, usullar. *Академические исследования в современной науке*, 2(14), 146-149.

14. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(6).

15. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. *Экономика и социум*, (6 (73)), 341-344.



## IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARODORLIGI

**Nurbekjon Yusupov Xasan o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

E-mail: [yusupovnurbek1993@gmail.com](mailto:yusupovnurbek1993@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aholi bandligini oshirish, ichki bozorni milliy mahsulot bilan ta'minlash borasida, bozor o'zgarishlariga tez moslashuvchan soha - kichik biznesning o'rni muhimdir. Ayni vaqtda iqtisodiyotimizning izchil rivojlanishini ta'minlovchi sohalardan biri bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash va ularning faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida kichik biznes korxonalariga kreditlar ajratish davlatimiz iqtisodiyotida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot globallasuvi sektor, strategik boshqaruv, kompetentlik antropogen ta'sir.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bu sohani rivojlantirmasdan, unga tegishli rag'bat va ko'mak bermasdan, imtiyoz yaratmasdan turib biz iqtisodiyotimizni kelajagini ta'minlay olmaymiz.

Iqtisodiyot globallasuvining yangicha sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi ishlab chiqarishning texnologik usuli va ularning butun jamiyat iqtisodiy salohiyati ta'siridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar nafaqat jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidagi markaziy bo'g'inini ham ifodalaydi. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasi"da mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, tarmoqda davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, agrar sektorni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi. Bozor sharoitida innovatsion g'oyalar tovar hisoblanadi va u talab mavjud bo'lgan



holdagina sotiladi. Innovatsion g'oya muallifi nafaqat o'z loyahasini foyda bilan sotishdan, balki ushbu loyiha natijasidan keyinchalik ham daromad olishdan manfaatdor bo'ladi. Demak, innovatsion g'oyaning aniq egasi (mualliflik huquqiga ega shaxs) bo'lishi lozim. Bunday tizim har doim ham mavjud emas. Mavjud qonunlarimiz respublika doirasida innovatsion g'oyalarni intellektual mulk ob'ekti sifatida ro'yxatga olish imkonini beradi va ulardan foydalanishda muallif huquqlarini kafolatlaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga aralashuvini kamaytirib borishi bilan bevosita bog'liq holda yuz bermoqda. Fermer tadbirkor sifatida innovatsion g'oyalarning haqiqiy xaridoriga aylanishi uchun uning birinchi navbatda iqtisodiy erkinligi kengayib borishi lozim. Muammolardan yana biri – qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va bozor innovatsiyasi bo'yicha yuqorida ko'rilayotgan choralardan tashqari, yig'ib olingan mahsulotdan samarali foydalanish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, turli xil iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqish samaradorligini oshiradi, shuningdek, ichki bozordagi singari tashqi bozorda ham raqobatbardoshlikni ma'lum darajada ko'taradi.<sup>18</sup>

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun boshqarishning, ayniqsa strategik boshqaruvning turli sohalarida ijobiy o'zgarishlar bo'lishi muhim vazifalardan biri sanaladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi natijasida korxonalarni strategik boshqarishda yangi talablar paydo bo'lmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy o'tish bosqichi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va turli xil mulkchilik shakllariga o'tish bilan tavsiflanadi. Bu o'z navbatida samarali boshqarishning zarurligini taqozo etadi. Samarali boshqarish o'z navbatida ishlab chiqariladigan mahsulot raqobatbardoshligini va buning natijasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonani strategik boshqaruv - bu ko'proq biznes va menejmentning ma'lum falsafasi yoki mafkurasidir. Har bir menejer tomonidan u ma'lum ma'noda o'zgacha tushuniladi va amalga oshiriladi. Albatta, muammolarni tahlil qilish va strategiyani tanlash, shuningdek strategik rejalashtirishni amalga oshirish va strategiyaning amaliy realizatsiyasining bir qator tavsiyalari, qoidalari va mantiqiy chizmalari mavjud. Lekin umuman olganda, strategik boshqaruv-bu strategik maqsadlarga tashkilotni yetkazishda yuqori raxbariyat intuitsiyasi va san'atining simbiozi,

<sup>18</sup> Ortiqov I. Agrar sohada innovatsiyaning ahamiyati. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent,2009. - №2. - B.29.

xizmatchilarning yuqori malakasi va ijodi va nihoyat, barcha xodimlarning tashkilot vazifalarini amalga oshirishga, maqsadlariga erishishning eng yaxshi yo‘llarini izlashga aktiv kirishishidir.

Korxonani boshqarishning maqsadlarini quyidagi turlarga bo‘lib tasniflashimiz mumkin:

- amalga oshirish muddatiga ko‘ra - joriy va istiqbolli;
- ahamiyat darajasiga ko‘ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);
- boshqaruv obyektiga munosabatiga ko‘ra - xususiy va umumiy;
- natijaga erishish darajasiga ko‘ra - yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

Boshqaruv qarori - boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo‘g‘indir. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko‘p jihatdan qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqaruv qarori bir tomondan asosan korxonaning rahbarlari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, emotsional-psixologik xatti-harakatdir. Boshqaruv qarorlari quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi:

- kompetentlik va mas‘uliyat bo‘yicha - yakka tarzda yoki kollegial (jamo) boshqaruv qarorlari;

- mazmuni bo‘yicha - ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy boshqaruv qarorlari;

- xarakteri bo‘yicha - operativ-taqsimlovchi, xo‘jalik-rahbarlik va me‘yoriy boshqaruv qarorlari;

- ta‘sir ko‘rsatish darajasi bo‘yicha - bir va ko‘p darajali boshqaruv qarorlari; - ta‘sir ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha - ichki va tashqi;

- ta‘sir ko‘rsatish miqyosi bo‘yicha - xususiy va umumiy (majmuaviy); - ta‘sir ko‘rsatish davri bo‘yicha - bir martalik va ko‘p martalik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonani boshqaruvini tashkil etish va uning samaradorligi ni yanada oshirishda quyidagi talablarga etibot berishi kerak.

- hududlararo almashish va eksport ahamiyatiga ega bo‘lgan istiqbolli mahsulotlarning ishlab chiqarilishi;

- qo‘shilgan qiymatning ulushi va iqtisodiy samarasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi;

- mayda va yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bir-birini to‘ldiruvchi maqbul nisbatda bo‘lishi;

- ekotizimga antropogen ta‘sirni kamaytirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligining oshirilishi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxmudov e.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O`quv.qo`ll. –T.: O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2004.
2. Akromov e.A Korxonalarning moliyaviy xolati taxlili. – T.: Moliya, 2003.- 223 b.
3. Maqsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tug`risidagi Nizom. -T.: 1999, 5 fevral’.
4. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy saloqiyati taqlili. T.:
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida Farmoni 2008-y.
6. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirish masalasi” R. Qo`rg`onova – O`zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Senatining Tashqi siyosat masalalari qo`mitasi a`zosi ma`ruzasidan. 2011-yil.



## O‘ZBEKISTONNING JSTGA QO‘SHILISHINING MILLY IQTISODIY MANFAATLARI

**Nilufar Davlatyarova Toxirova**

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti, JIDU magistranti

[nilufar.davlatyarova@mail.ru](mailto:nilufar.davlatyarova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a’zo bo’lish sharoitlarida O‘zbekiston milliy manfaatlarini asosiy yo‘nalishlari muhim bir qator omillarga ko‘ra o‘rganilgan va savdoni liberallashtirishning iqtisodiyotimizga ijobiy ta’siri tahlil qilingan. Qayd etish kerakki, yaqin yillar ichida O‘zbekistonning ushbu tashkilotga a’zo bo’lishi kutilmoqda. Shunday ekan JST ga a’zo bo’lish sharoitlari va kutilayotgan o‘zgarishlar O‘zbekiston uchun muhim masala hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** JST, GATT, savdoni liberallashtirish, proteksionizm, logistika, monopoliya, inflatsiya, YaIM.

**Annotation:** In this article, the main directions of Uzbekistan's national interests in the context of membership in the World Trade Organization (WTO) are studied according to a number of important factors, and the positive impact of trade liberalization on our economy is analyzed. It should be noted that Uzbekistan is expected to become a member of this organization in the coming years. Therefore, the conditions of WTO membership and expecting changes are an important issue for Uzbekistan.

**Keywords:** WTO, GATT, trade liberalization, protectionism, logistics, monopoly, inflation, GDP.

Jahon savdo tashkiloti (JST) – xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug‘ullanadigan hukumatlararo tashkilot bo‘lib, 1995-yil 1-yanvarda imzolangan kelishuv asosida faoliyat ko‘rsatadi.<sup>19</sup> JST 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim – GATT’ning davomchisi hisoblanadi. Tashkilotga a’zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo‘lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan. Bugungi kunda dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotga 164 davlat a’zo va ushbu mamlakatlar hissasiga global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining 98 foizi to‘g‘ri keladi. JSTning asosiy vazifasi global iqtisodiyotni kuzatish orqali xalqaro savdo izchilligi va shaffofligini ta’minlashdir. Shuningdek,

<sup>19</sup> World Trade Organization. The WTO in Brief.  
[https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/whatis\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/whatis_e.htm)

tashkilotning yana bir ustuvor yoʻnalishi rivojlanayotgan, kam rivojlangan va kam daromadli mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali JSTning qoida va intizomlariga moslashishga yordam berish hisoblanadi.

**Xoʻsh, agar Oʻzbekiston JSTga qoʻshilsa, bu unga qanday naf beradi?**

Bilamizki, JSTning asosiy tamoyili – erkin, ochiq va shaffof raqobat hisoblanadi. Agar Oʻzbekiston tashkilotga aʼzo sifatida qabul qilinsa, global savdo «oʻyin qoidalari»ga amal qilgan holda, bosqichma-bosqich proteksionizmdan voz kechadi. Bu birinchi yutugʻimiz boʻladi. Dunyoda ishlab chiqarish juda murakkab — qiyin va uzun texnologik ishlab chiqarish zanjirlarining qismi boʻlishimiz kerak, yuqori tariflar bilan buni uddalay olmaymiz. Bu birinchi navbatda, bojxona tariflari kamayishi hisobiga isteʼmolchilarga arzon va sifatli tovarlar hamda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim qiladi. Xomashyo narxi pasayishi hisobiga mahalliy mahsulotlar narxi ham arzonlashadi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi ortadi. Logistika bilan bogʻliq xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Chetdan olib kirilayotgan xomashyo narxi qancha arzon boʻlsa, mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot narxi ham shuncha past boʻladi<sup>20</sup>. Raqobatbardoshlik oshadi. Bu dastlabki davrda milliy ishlab chiqarishga salbiy taʼsir oʻtkazsa-da, uzoq muddatli istiqbolda raqobat muhitini vujudga keltirishda ijobiy omil hisoblanadi.

